

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

«BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT» FAKULTETI

«BUXGALTERIYA HISOBI» kafedrası

«HIMOYAGA RUXSAT ETILADI»

Kafedra mudiri prof. _____ R.Xolbekov

«_____» _____ 2012 y.

MATERIALLAR HARAKATINING HISOBI VA AUDITI

(Yakkabog' "Oq-oltin paxta tozalash zavodi OAJ misolida)

mavzusi bo'yicha yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

Bajardi: «Buxgalteriya hisobi va audit»
ta'lim yo'nalishi bitiruvchi

«_____» _____ 2012 y.

Bitiruv malakaviy ishi kafedrada dastlabki himoyadan o'tdi. _____ sonli
bayonnomasi «_____» _____ 2012 yil.

T O S H K E N T – 2012

Mundarija

Kirish	3
1-Bob. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilash sharoitida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda materiallar hisobi va auditining nazariy asoslari.....	8
1.1. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilash sharoitida korxonalarning tutgan o'rni hamda ahamiyati	8
1.2. Iqtisodiyotni diversifikatsiyalash sharoitida korxonalarda materiallar harakatining hisobini tashkil qilishning nazariy asoslari	15
1.3. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilash sharoitida materiallar harakati auditining uslubiy asoslari	22
2-Bob. Yakkabog' "Oq-oltin paxta tozalash zavodi» OAJda materiallar harakati hisobini tashkil etishning amaliyoti va uni takomillashtirish	30
2.1. Yakkabog' "Oq-oltin paxta tozalash zavodi» OAJda materiallar harakati hisobining dastlabki hisobi va uning amaliyoti.....	30
2.2. Yakkabog' "Oq-oltin paxta tozalash zavodi» OAJda xorijdan sotib olingan materiallar harakati bo'yicha valyuta kurslaridagi farqlar hisobi.....	37
2.3. Yakkabog' "Oq-oltin paxta tozalash zavodi» OAJda materiallar harakati hisobi va uni takomillashtirish	41
3-Bob.Yakkabog' "Oq-oltin paxta tozalash zavodi» OAJda materiallardan samarali foydalanishning auditorlik tekshiruvi amaliyoti va uni takomillashtirish.....	47
3.1.Yakkabog' "Oq-oltin paxta tozalash zavodi» OAJda material qiymatliklarni auditorlik tekshiruvidan o'tkazishda axborot manbalaridan foydalanish	47
3.2. Yakkabog' "Oq-oltin paxta tozalash zavodi» OAJning moliyaviy barqarorligini auditorlik tekshiruvi orqali aniqlash	57
3.3. Yakkabog' "Oq-oltin paxta tozalash zavodi» OAJda materiallar harakatini audit qilish va ularni baholashni takomillashtirish yo'llari.....	61
Xulosa va takliflar	75
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	78

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Mamlakatimizda iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab quvvatlash bo'yicha belgilangan vazifalarni izchillik bilan amalga oshirilishi, jumladan, mahsulot eksport qiluvchi qishloq xo'jaligi korxonalarining byudjet oldidagi va bank kreditlari bo'yicha qarzlarini to'lash muddatlarini uzaytirilishi, qishloq xo'jaligi korxonalarida mahsulot tannarxini kamaytirish bo'yicha choralar, ichki talabni ko'paytirish orqali mahsulot bozorini kengaytirish, zarar ko'rib ishlayotgan xo'jaliklarni banklar balansiga o'tkazish orqali ularni moliyaviy sog'lomlashtirish bo'yicha ijobiy natijalarga erishildi.

Bu borada Prezidentimiz I.Karimov o'z ma'ruzasida "...2011-yili eng muhim qishloq xo'jalik mahsulotlari davlat xaridi bo'yicha shartnoma majburiyatlari nafaqat bajarilgani, balki ortig'i bilan bajarilganini ta'kidlash o'rinlidir. SHuni ochiq tan olish kerakki, fermer xo'jaliklarini tashkil etish va ularning mas'uliyatini yanada oshirish borasida hali ko'p ish qilishimiz lozim. O'tgan yili 3 ming 800 dan ortiq fermer xo'jaligi paxta etishtirish bo'yicha shartnoma majburiyatini bajara olmadi. Natijada 120 milliard so'mlikdan ortiq yoki 160 ming tonnadan ziyod paxta xomashyosi kam etkazib berildi. Agar bu ko'rsatkichni eksport qilish mumkin bo'lgan paxta tolasiga aylantiradigan bo'lsak, boy berilgan foyda hajmi, paxtani qayta ishlashdan olinadigan moy, shrot, kunjara va boshqa mahsulotlarni hisobga olmaganda ham, yo'qotish qariyb 100 million dollarni tashkil etadi"¹ deb ta'kidlagan edi.

Shunday ekan, biz kelgusidagi asosiy vazifalarimizdan biri paxta tozalash zavodlarida eksportbop mahsulotlar tayyorlashimiz zarur. Buning uchun mahsulotlar raqobatbardosh bo'lishi va tovar ishlab chiqaruvchilarimiz xorijlik ishbilarmonlar bilan bo'ladigan raqobatda ustunlikka erishishlari lozim. Raqobatdagi ustunlik esa, mahsulot tannarxining past darajaligi, ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatining yuqori bo'lishi va bozor talablariga tez

¹ ЎЗР Президенти И.А.Каримовнинг 2010 йилда мамлакатимизни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш яқунлари ва 2011 йилга мўлжалланган энг муҳим устувор йўналишларига баъишланган Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маъкамаси мажлисидаги маърузаси. Халқ сўзи, 2011 йил 22 январь, № 16 (5183).

moslashishi bilan belgilanadi. Bunda paxta tozalash zavodlarida materiallardan samarali foydalanish, xarajatlarni tejash masalalari muhim ahamiyatga egadir.

Shu boisdan, ushbu masalalar ayniqsa paxta tozalash zavodlarida materiallar hisobi va auditini to'g'ri tashkil qilish dolzarb vazifa hisoblanadi. Chunki, paxta tozalash zavodlarida materiallarga qilinayotgan xarajatlar hisobi va auditining amaldagi tizimi boshqaruv talablariga to'la javob bermasligini ko'rsatadi. Shuning uchun yuqorida bayon etilgan mavjud masalalarni ijobiy hal etish mazkur mavzu bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etadi va bitiruv malakaviy ishida aynan ushbu masalalarni yorish zaruriyatini belgilab beradi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. materiallar harakatining hisobi va auditini tashkil qilish masalalar ko'pchilik iqtisodchi olimlar va mutaxassislarning diqqat markazida bo'lgan. Ayniqsa, bu masalalarning ob'ektiv echimini ishlab chiqishda iqtisobchi olimlarimizning o'z fikr va muloxazalari bayon qilingan ilmiy maqola, risola hamda ilmiy asarlari chop qilingan.

Xususan, O'zbekistonlik olimlardan A.Sotivoldiev, A.Ibragimov, O.Bobojonov, N.Jo'raev, A.Jumanov, YU.Itkin, A.Pardaev, M.Pardaev, A.Rizoqulov, N.Sanaev, B.Xasanov, R.Xolbekov, S.Qodirxonovlarning ham ilmiy ishlarida o'z ifodasini topgan.

SHuningdek, xorijlik olimlar R.Alborov, A.Bekaev, M.Kuter, N.Kondrakov, Z.Kir'yanova, S.Nikolaeva, N.Seleznova, L.Smirnova, I.Xabarova, A.SHeremet kabi iqtisodchi olimlarning maxsus darslik va o'quv qo'llanmalarida ham o'z aksini topgan. Albatta, bu olimlarning ilmiy va uslubiy ishlari ham nazariy ham amaliy ahamiyatga ega.

Ammo, ushbu iqtisodchi olimlarning ilmiy maqolalari, darslik va o'quv qo'llanmalarida bu masalalar davlat tomonidan rejalashtirish, ma'muriy buyruqbozlik tizimi davrida bajarilgan. Shu boisdan, ushbu masalalar bozor raqobati sharoitida hali ham munozarali bahslarning davom etayotganligi

mazkur muammolarning hali to'liq hal etilmaganligidan dalolat beradi. SHu nuqtai nazardan, mazkur mavzu bugungi kunda dolzarb masalalardan hisoblanadi. Yuqorida qayd qilingan fikr va mulohazalar ushbu mavzuda ilmiy izlanish olib borish zaruriyatini vujudga keltirdi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari - paxta tozalash zavodlarida materiallar harakatining hisobi va auditini tashkil hamda uni takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iboratdir.

Ushbu maqsad kelib chiqib, quyidagi vazifalarni belgilash va hal etishni ko'zda tutadi:

- materiallardan foydalanishning iqtisodiy mazmuni, mohiyati va ularni turkumlash hamda baholashning nazariy asoslarini o'rganish;

- paxta tozalash zavodlarida materiallarning buxgalteriya hisobi va auditining uslubiy asoslarini tahlil qilish;

- paxta tozalash zavodlarida materiallar harakatining hisobini tashkil qilishning hozirgi holatini o'rganish va mavjud bo'lgan muammolarni o'rganish;

- paxta tozalash zavodlarida materiallar harakatining buxgalteriya hisobini yuritishning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olib, valyuta qiymatliklaridagi kurs farqlarini hisobga olish tartibini o'rganish;

- paxta tozalash zavodlarining moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlarini audit tekshiruv orqali aniqlash va uning holatiga baho berish;

- paxta tozalash zavodlarida materiallardan samarali foydalanish jarayonini audit qilish tartibini o'rganishdan iboratdir.

Tadqiqot predmeti bo'lib, YAKkabog' "Oq-oltin paxta tozalash zavodi OAJda materiallar harakatining hisobi va auditini o'rganish jarayonida sodir bo'ladigan iqtisodiy munosabatlardan iborat.

Tadqiqot ob'ekti bo'lib, YAKkabog' "Oq-oltin paxta tozalash zavodi OAJda materiallar harakatining hisobi va auditini tashkil qilish tizimi faoliyati hisoblanadi.

Tadqiqotning nazariy va uslubiy asoslarini O'zbekiston Respublikasining xo'jalik yurituvchi sub'ektlari faoliyatini tartibga soluvchi qonunlari, mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimovning iqtisodiyotimizni rivojlantirish, islox qilish va erkinlashtirishga oid Farmonlari, Qarorlari, asarlari va ko'rsatmalari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, sanoat korxonasining hamda Moliya vazirligining hisob tizimi uslubiyatiga doir normativ xujjatlari va yo'riqnomalari tashkil etadi.

Ilmiy izlanish jarayonida mavzuga oid xorijiy, shuningdek mamlakatimiz iqtisodchi olimlarining ilmiy ishlari, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlaridan va Internet resurslari manbalaridan hamda paxta tozalash zavodlari faoliyatini aks ettiruvchi statistik ma'lumotlaridan foydalaniladi.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy yangiligi quyidagilar bilan izohlanadi:

- materiallardan foydalanishning iqtisodiy mazmuni, mohiyati va ularni turkumlash hamda baholashning nazariy asoslarini atroflicha o'rganildi;
- paxta tozalash zavodlarida materiallar harakatining buxgalteriya hisobi va auditining uslubiy asoslarini nazariy jihatdan tahlil qilindi;
- paxta tozalash zavodlarida materiallar harakatining hisobini tashkil qilishning hozirgi holatini o'rganildi va kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan takliflar berildi;
- paxta tozalash zavodlarida materiallar harakatining buxgalteriya hisobini yuritishning o'ziga xos xususiyatlari o'rganildi va valyuta qiymatliklaridagi kurs farqlarini hisobga olish tartibi ko'rib chiqildi;
- paxta tozalash zavodlarining moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlarini audit tekshiruvi orqali aniqlashtirildi va uning holatiga baho berildi;
- paxta tozalash zavodlarida materiallardan samarali foydalanish jarayonini audit qilish tartibi o'rganilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati. Olib borilgan tadqiqot ishi natijalaridan oliy o'quv yurtlarida ta'lim olayotgan iqtisodchi talabalarga

buxgalteriya hisobi va audit fanlarini o'qitishda o'quv uslubiy qo'llanma sifatida foydalanish mumkin. Bitiruv malakaviy ishida keltirilgan fikr-mulohazalarni YAKkabog' "Oq-oltin paxta tozalash zavodi» OAJ faoliyatiga tatbiq qilish, ularda materiallarning buxgalteriya hisobi va auditni tashkil qilishga yordam beradi deb o'ylaymiz. Bu o'z navbatida, buxgalteriya hisobiga ma'lumot berish va nazorat qilish vazifalarini mukammallashtiradi. Natijada ular faoliyatining samaradorligini oshirish uchun mavjud imkoniyatlardan foydalanishga zamin yaratadi.

Tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq qilish. Ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar YAKkabog' "Oq-oltin paxta tozalash zavodi» OAJ da materiallarning buxgalteriya hisobini yuritish va uning auditini tashkil qilish bo'yicha uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqishda, shuningdek, oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan talabalarga «Moliyaviy hisob», «Audit asoslari» kabi fanlarni o'qitishda uslubiy qo'llanma sifatida foydalanish mumkin.

BMI tarkibiy tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, uchta bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati va ilovalardan tashkil topgan.

1-Bob. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda materiallar harakatining hisobi va auditining nazariy asoslari

1.1. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilash sharoitida korxonalarning tutgan o'rni hamda ahamiyati

Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot tajribalaridan ma'lumki, mamlakat iqtisodiyoti uni rivojlanishining ob'ektiv qonuniyatlarini, iqtisodiy salohiyat va imkoniyatlarini, milliy qadriyat va xususiyatlarini, ma'naviy boyliklarini to'la hisobga oluvchi, mukammal iqtisodiy siyosat ishlab chiqilib, izchil amalga oshirilgan sharoitdagina barqaror va mutanosib rivojlana oladi. Aynan mana shunday omillarni o'z mazmun-mohiyatiga singdirgan, bugungi kunda jahon hamjamiyati tomonidan to'liq e'tirof etilayotgan taraqqiyotning "o'zbek modeli" mamlakatimizning jadal ravnaq topishi, xalqimiz moddiy va ma'naviy hayotining tez sur'atlar bilan yuksalib borishi uchun mustahkam negiz bo'lib xizmat qilmoqda.

Mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda to'g'ri yo'l tutganligi, uning rivojlanishi asosida qabul qilingan tamoyillarning mantiqiy yaxlitligi va keng qamrovi, eng muhimi, ularning xalqimiz hayoti mazmun-mohiyatini chuqur ifodalay olganligi yaqqol namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, 2008 yilda boshlangan hamda bugungi kunda hamon o'zining ta'sir oqibatlarini ko'rsatib kelayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida mamlakatimiz, uning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining milliy modeli yana bir bor sinovdan muvaffaqiyatli o'tganligi e'tirofga loyiqdir.

Mamlakatimizdagi chuqur iqtisodiy islohotlar, ijtimoiy hayotning turli jabhalarida amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari, iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash, keng tarkibiy o'zgarishlar 2010 yilda ham o'zining salmoqli natijalarini ko'rsatdi. Erishilgan natija va muvaffaqiyatlarning keng tahlili hamda kelgusida e'tibor qaratishimiz lozim bo'lgan masalalarni yanada chuqurroq hal etish borasida Prezidentimiz I.Karimov

shu yilning 19 yanvarida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan majlisida ma'ruza qildi. Unda birinchidan, mahsulot tannarxini 10-15 foizga pasaytirish yuzasidan har bir sanoat korxonasi bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni ko'zda tutadigan dastur ishlab chiqish lozim.

Ikkinchidan. Mamlakatimiz korxonalarida qishloq xo'jaligi xom ashyosini qayta ishlash darajasini tanqidiy tahlil qilish va uni rivojlantirish bo'yicha mavjud resurs va imkoniyatlarni aniqlash hamda sanoatning qayta ishlash tarmoqlarini jadal rivojlantirish, ishlab chiqarilayotgan iste'mol tovarlari turlarini ko'paytirish va sifatini yaxshilash, buning uchun qo'shimcha imtiyozlarni ko'zda tutadigan maxsus qaror qabul qilish kerak. Bu borada, birinchi navbatda, mahalliy xomashyo va materiallar asosida sanoat kooperatsiyasi va ishlab chiqarishni mahalliyashtirish tizimini yanada rivojlantirishga oid ishlarni davom ettirishga alohida e'tibor qaratish darkor.

Uchinchidan. Bugungi keskin raqobat sharoitida mahsulotlarimizning jahon va mintaqaviy bozorlarda xaridorgir bo'lishi va mustahkam o'rin egallashi uchun bu boradagi ishlarni yana bir bor tanqidiy ko'rib chiqish lozim. Bunda tashqi bozorda xaridorbop, yuqori likvidli mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish uchun eksportga mahsulot chiqaradigan korxonalarni rag'batlantirishni yanada kuchaytirish, ularga yangi imtiyoz va preferentsiyalar berish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar tayyorlash zarur.

To'rtinchidan. Mamlakatimizdagi raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari va boshqa tarmoqlarning eksport yarmarkalari o'tkazishini kengaytirish, shuningdek, mahsulot sotishning zamonaviy usullaridan keng foydalanish, asosiy ishlab chiqaruvchilarimizni o'z mahsulotlari taqdimotini o'tkazish va yangi eksport shartnomalari tuzishi uchun nufuzli xalqaro yarmarkalarga jalb etish bo'yicha alohida hukumat qarorini qabul qilish lozim deb qayd etildi.

Prezidentimiz 2011 yil yakunlarini baholashda avvalo mamlakatimiz iqtisodiyotining yuqori barqaror o'sish sur'atlari va makroiqtisodiy mutanosibligi saqlanib qolayotganini qayd etish zarurligini ta'kidladilar. Darhaqiqat, jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa barcha muammolarni hal qilishning asosiy yo'li – bu milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va iqtisodiy o'sishiga erishishdir. Aholi farovonligining oshib borishi ham pirovard natijada iqtisodiy o'sish darajasi va sur'atlariga bog'liq.

Iqtisodiy o'sish bevosita yalpi ichki mahsulot hajmining mutlaq va aholi jon boshiga hamda iqtisodiy resurs xarajatlari har bir birligi hisobiga o'sishi, sifatining yaxshilanishi va tarkibining takomillashuvida ifodalanadi. Iqtisodiy o'sishni YAIM mutlaq hajmining ortishi orqali yoki aholi jon boshiga real YAIM miqdorining ortishi orqali o'lchash buning qanday maqsadda amalga oshirilayotganiga bog'liq bo'ladi. Odatda biron-bir mamlakat iqtisodiy o'sishini YAIM mutlaq hajmining ortishi orqali o'lchash uning iqtisodiy salohiyatini baholashda, aholi jon boshiga real YAIM miqdorining ortishi orqali o'lchash esa mamlakatdagi turmush darajasini taqqoslashda qo'llaniladi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan keng qamrovli iqtisodiy islohotlar natijasida 1996 yildan boshlab oldingi yilga nisbatan, 2001 yildan boshlab esa 1991 yildagi darajaga nisbatan YAIM hajmining barqaror ravishda o'sishiga erishildi. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ta'sirida yuzaga kelgan muammo va qiyinchiliklarga qaramay, 2008 yilda yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atlari 9 foizni, 2009 yilda 8,1 foizni, 2010 yilda esa 8,5 foizni tashkil etdi. Keyingi o'n yilda, ya'ni 2000 yilga nisbatan taqqoslaganda, 2010 yilda mamlakatimizda yalpi ichki mahsulot qariyb 2 barobar, aholi jon boshiga hisoblaganda esa 1,7 barobarga, 2011-yilda yalpi ichki mahsulot hajmi 8,3 foizni ya'ni, 2,1 barobar oshdi. Mazkur ko'rsatkich bo'yicha O'zbekiston dunyoning iqtisodiyoti jadal rivojlanayotgan mamlakatlari qatoridan joy oldi. O'tgan yili sanoat ishlab chiqarishi 6,3 foiz, qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirish 6,6 foiz, chakana savdo aylanmasi 16,4

foiz va aholiga pullik xizmatlar ko'rsatish 16,1 foizga barqaror yuqori sur'atlar bilan o'sdi. 2011-yilda bu ko'rsatkich 24,1 foizga etganida yaqqol ko'rish mumkin

Ushbu ko'rsatkichlarning ahamiyati, ularning haqiqiy salmog'i milliy valyutaning xarid imkoniyatlari mutanosibligini hisobga olgan holda yanada oshadi. Xarid imkoniyatlari mutanosibligi milliy valyutalarning xarid imkoniyatlari, ya'ni har bir mamlakatdagi tovar va xizmatlarning muayyan to'plami narxlarini hisobga olgan holda ular o'rtasidagi nisbatni anglatadi. Ma'lumki, milliy valyutaning almashuv kursini o'rnatishda mazkur valyutaga talab va taklifning nisbati hisobga olinib, bu nisbat tashqi savdo operatsiyalari, ya'ni savdo-sotiqda ishtirok etuvchi tovar va xizmatlar asosida tarkib topadi. Biroq, jahonning aksariyat mamlakatlarida bu tovar va xizmatlar YAIMning juda oz qismini tashkil etadi. Xarid imkoniyatlari mutanosibligini anqlashda imkon qadar tovar va xizmatlarning kengroq doirasini qamrab olishga harakat qilinadi. Masalan, milliy valyuta xarid imkoniyatlari mutanosibligi bo'yicha turli mamlakatlar YAIM hajmini aniqlashga mo'ljallangan BMT Xalqaro taqqoslashlar dasturi doirasida 600-800 turdagi asosiy iste'mol tovarlari va xizmatlar, 200-300 turdagi asosiy investitsiya tovarlari, 10-20 ta namunaviy qurilish ob'ektlari hisobga olinadi. So'ngra mazkur to'planning tadqiq etilayotgan mamlakat milliy valyutasidagi hamda AQSH dollaridagi qiymati aniqlanadi. Xarid imkoniyatlari mutanosibligini o'rnatish asosida u yoki bu milliy valyutaning xarid qobiliyati baholanadi².

Shuni ta'kidlash kerakki, iqtisodiyotning etakchi tarmoqlarida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va bu sohalarni diversifikatsiya qilishga qaratilayotgan ulkan e'tibor eksport hajmi, uning tarkibi va sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. 2011-yilda eksport mahsulotlari hajmi 2010-yilga nisbatan qariyb 15,4 foizga ko'paydi va 15 milliard dollardan ko'proqni tashkil etdi. Bu 2000-yilga nisbatan 4,6 barobar ziyoddir. Tashqi savdo aylanmasining ijobiy saldosi 4 milliard 500 million dollardan oshdi. Eksport tarkibida tayyor mahsulotlar ulushi 60 foizni tashkil etdi, holbuki, 2000-yilda bu ko'rsatkich qariyb 46 foizni tashkil etgan edi.

² Мировая экономика: Учебник / Под ред. проф. А.С.Булатова. – М.: Экономистъ, 2005. – С.51.

O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror va mutanosib rivojlanib borayotganini 2005-yildan boshlab Davlat byudjeti profitsit bilan bajarilayotgani ham yaqqol tasdiqlab turibdi. 2011-yilda Davlat byudjetining xarajatlar qismi 2010-yilga nisbatan 25,4 foizga, 2000-yilga nisbatan esa qariyb 17,8 barobar o'sdi. Qayd etish joizki, davlat byudjeti xarajatlarning 58,7 foizi ijtimoiy sohani moliyalash va aholining kam ta'minlangan qatlamlarini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirildi.


O'zbekiston iqtisodiyotini liberallashtirish va modernizatsiyalash, ishlab chiqarish samaradorligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash hamda iqtisodiyotning etakchi tarmoqlarini jadal yangilash masalalariga e'tibor hozirgi kunda, ayniqsa, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlaridan saqlanish davrida dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Bu borada amalga oshirilayotgan ishlar asosan mamalakatimizda amal qilinayotgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar negizida amalga oshirilmoqda³.

Mamlakatimizda iqtisodiy o'sishga, aholi turmush darajasini yaxshilashga hamda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida raqobatdoshlik ko'rsatkichini oshirishga erishish, birinchi navbatda ishlab chiqarish sohasini modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlashga bog'liq. Aynan shu borada, Prezidentimiz Islom Karimov "Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, iqtisodiyotning etakchi tarmoqlarini jadal yangilash biz uchun eng muhim ustuvor vazifa sifatida izchil davom ettiriladi." degan fikrni ta'kidlab o'tdi. Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash o'z-o'zidan mamlakatda tovarlar ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan barcha turdagi iqtisodiy resurslarni oqilona ishlatishda asos bo'ladi.

³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2007 йил 1 июндаги "2007-2011 йиллардаги даврда ўрилиш материаллари саноати корхоналарини модернизация қилиш, техник ва технологик қайта жиҳозлаш дастури тўғрисида"ги қарори; 2009-2012 йилларга мўлжалланган Инқирозга қарши чоралар дастури; Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2009 йил 12 мартдаги "2009-2014 йилларда ишлаб чиқаришни модернизация қилиш, техникавий технологик қайта жиҳозлаш бўйича энг муҳим лойиҳаларни амалга ошириш чоратadbirlari дастури тўғрисида"ги қарори; Ўзбекистон Республикаси Президентининг "2011-2015 йилларда Ўзбекистон Республикаси саноатини ривожлантиришнинг устувор йўналишлари тўғрисида"ги қарори.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi mamlakatlar iqtisodiyotiga o'z ta'sirini ko'rsatishda davom etayotgan bir vaqtda fan va texnologiyani jadal rivojlantirish va uning yutuqlaridan samarali foydalanishga talab tobora oshib bormoqda.

Mamlakatimiz zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalangan holda ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar orqali nafaqat ichki bozorda, balki raqobat kurashi kuchayib borayotgan jahon bozorlarida o'z o'rnini topishi uchun yagona yo'l bo'lib qoldi. Ishlab chiqarishni zamon talablariga javob berishidan korxona va firmalar bilan bir qatorda iste'molchilar ham naf ko'radi (1-chizmaga qarang).



1-chizma. Yuqori texnologiyalardan foydalanishning ishlab chiqaruvchi va iste'molchilarga bo'lgan ta'siri.

Bizga ma'lumki, har qanday mamlakat milliy boyligining ortishi, iqtisodiy o'sishi, faqat uning tabiiy resurslari hisobiga emas, balki ishlab chiqarishda foydalanilayotgan texnika-texnologiyasining rivojlanganlik darajasiga ham bog'liq. Bu bog'liqlikni buyuk matematik P.Piltser quyidagi formula orqali izohlagan:

$$W = P C H T^n$$

Bu erda, W – mamlakatning boyligi, P – tabiiy resurslar, T – texnologiya, n – texnika taraqqiyotining texnologiyaga ta'siri darajasi.

2012 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yo'lida belgilangan asosiy vazifalar hisoblanmish, islohotlarni davom ettirish, chuqurlashtirish,

mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilish, 2009 – 2012 yillarga mo'ljallangan Inqirozga qarshi choralar dasturini so'zsiz bajarish, makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlash hamda iqtisodiyotning asosiy etakchi sohalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash, transport va infratuzilma kommunikatsiyalarini rivojlantirishga qaratilgan strategik ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirish uchun faol investitsiya siyosatini olib borish kabi dolzarb masalalar joriy yil uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Inqirozga qarshi choralar dasturiga binoan mamlakat iqtisodiyotiga investitsiyalar jalb etish, birinchi navbatda ichki manbalarni yo'naltirish asosida iqtisodiyotning muhim tarmoqlarini jadal modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, ikkinchidan, transport kommunikatsiyalarini yanada rivojlantirish, uchinchidan esa, ijtimoiy infratuzilma ob'ektlarini barpo etish ko'zda tutilgan edi.

Prezidentimiz Islom Karimovning 2011 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2012 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasida qayd etilgan muhim ustuvor vazifalardan biri ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, iqtisodiyotning etakchi tarmoqlarini jadal yangilash deb topildi. Ma'ruzaga ko'ra, mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishga yo'naltirilayotgan kapital qo'yilmalar hajmi ancha oshib, o'tgan yilga nisbatan ularning o'sish sur'atlari 109,3 foizni, yalpi ichki mahsulot tarkibidagi ulushi esa 24,5 foizni tashkil etishi kutilmoqda. SHuningdek, xorijiy investitsiyalar va jalb qilinadigan kreditlar hajmi 16 foizga ko'payib, 3 milliard 300 million dollardan oshadi. Mazkur mablag'ning 2 milliard 300 million dollardan ortig'i yoki qariyb 70 foizini to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar tashkil etishi ayniqsa e'tiborlidir. Bu xorijiy investorlarning iqtisodiyotimizning mustahkamligi va barqarorligiga, eng muhimi, O'zbekiston taraqqiyotining istiqboliga bo'lgan qiziqishi va ishonchi tobora ortib borayotganidan yaqqol dalolat beradi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining sanoat tarmog'ini modernizatsiyalash yo'lida ko'pgina ishlar amalga oshirilmoqda. Shular qatoriga, Prezidentimizning 2010 yil 21 dekabrda PQ-1442-sonli qarori⁴ ham ushbu sohani yanada rivojlantirishga asos bo'ladi.

Shunday qilib, iqtisodiyotning tarkibi xalq xo'jaligining mutanosibligini, uning samaradorligi va barqaror o'sishini ta'minlash uchun ulkan ahamiyatga ega. Rivojlangan davlatlarning iqtisodiy muvaffaqiyatlari ko'p jihatdan ishlab chiqarishdagi umumiy dinamikani va boshqa sifat o'zgarishlarini ta'minlab bergan chuqur tarkibiy o'zgarishlar bilan izohlanadi. Shu nuqtai nazardan tarkibiy o'zgarishlarni o'rganish, tadqiqotlarni olib borish nazariya va uslublarini yaratish, ularni amalga oshirishning yo'llari va usullarini ishlab chiqish bugungi kunning muhim vazifalaridan hisoblandi. Mazkur masalaning ijobiy hal qilinishi esa iqtisodiy mustaqillikka erishish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash imkoniyatini yaratdi.

1.2. Iqtisodiyotni diversifikatsiyalash sharoitida korxonalarda materiallar harakatining hisobini tashkil qilishning nazariy asoslari

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilash sharoitida paxta tozalash zavodlarida foydalaniladigan sarflanadigan material xarajatlari salmog'ini kamaytirishga o'xshagan sifat ko'rsatkichlari hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Bunga ilg'or konstruktiv materiallardan, metall upalari va plastmassalardan, qimmat turadigan materiallar o'rniga mahsulot sifatini pasaytirmaydigan, ishlab chiqarish chiqindilarini kamaytiradigan arzon materiallardan foydalanish yo'li bilan erishiladi.

Buxgalteriya hisobining axborotlari materiallardan ratsional foydalanish, xarajat normalarini kamaytirish, materiallarni oqilona saqlash va ularni butligini ta'minlash yo'li bilan mahsulot tannarxini kamaytirishni ta'minlashi kerak.

⁴ Prezidentimizning "2011-2015 йилларда Ўзбекистон Республикаси саноатини ривожлантиришнинг устувор йўналишлари тўғрисида"ги 2010 йил 21 декабрдаги ПҚ -1442-сонли қарори

Paxta tozalash zavodlarida material qiymatliklar butligini amaliy nazorat qilishni ta'minlashda korxona marketing (ta'minot)ni tashkil etish, ombor va torozi o'lchov xo'jaligining holati katta ahamiyatga ega.

SHu maqsadda paxta tozalash zavodi bo'yicha chiqarilgan buyruqda har bir omborga doimiy nomer berkitilib keyinchalik bu nomer mazkur omborga tegishli barcha hujjatlarda ko'rsatiladi. Xo'jalikda bir necha omborda mal'um gurux materiallar saqlanishi mumkun. Materiallar ombor ichida sektsiyalar bo'yicha, keyin tiprazmerlari bo'yicha taxlanib, tokcha va polkalarda shunday saqlanishi kerakki, ularni qabul qilish ,jo'natish va tekshirish tez va oson bo'lsin. SHu maqsatdda materiallarni saqlash joylariga yorliq yopishtirib qo'yiladi. Omborlar to'g'ri torozi buyumlari va o'lchov idishlari bilan ta'minlangan bo'lishi kerak.

Materiallar qiymatlarini qabul qilish va jo'natish , bu muammolarni to'g'ri va o'z vaqtida rasmiylashtirish, shuningdek material qiymatlarini butligini ta'minlaydigan lavozimli va ma'sulyatli shaxslar ro'yxatini belgilash kerak. Bu shaxslar bilan moddiy javobgarligi to'g'risida shartnoma tuziladi. Ombordan materiallarni olish va jo'natish xujjatlariga imzo qo'yadigan, shuningdek materiallar qiymatlarini korxonadan olib chiqishga ruxsat beradigan lavozimli shaxslar ro'yxatini korxonada barcha bilishi kerak. Ishlab chiqarish jarayonida turli materiallar qiymatlaridan foydalaniladi.

Birinchi xil materiallar ishlab chiqarish jarayonida to'liq iste'mol qilinadi, ikkinchi xili o'z shaklini o'zgartiradi, uchinchi xili buyumga xech qanday tashqi o'zgarishsiz kiritiladi, to'rtinchi xili faqat maxsulot ishlab chiqarishga imkoniyat yaratib, uning massasiga yoki kimyoviy tarkibiga kirmaydi.

Material qiymatliklar paxta tozalash zavodlarining balansida tannarxi bo'yicha aks ettirilib, u harid qiymati va ularni harid qilish bilan bog'liq bo'lgan barcha xarajatlarni o'z ichiga oladi.

Paxta tozalash zavodlarida materiallarni chet-el valyutasida harid qilish bilan bog'liq bo'lgan va ularning tannarxiga kiritiladigan xarajatlarga

quyidagilar kiritiladi va chet-el valyutasidagi summani bojxona va yuk deklaratsiyasi ish, xizmatlar bajarilganligini tasdiqlovchi xujjatlarni rasmiylashtirish sanasidagi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki kursi bo'yicha qayta hisoblab so'mda belgilanadi.

Paxta tozalash zavodlarida materiallarni harid qilish bilan bog'liq bo'lgan va ularning tannarxiga kiritiladigan harajatlarga quyidagilar kiritiladi:

- import bojlari va yig'implari;
- materiallarni harid qilish bilan bog'liq bo'lgan soliq va yig'implari summolari;
- materiallar ular orqali harid qilingan ta'minotchi va vositachi tashkilotlarga to'lanadigan vositachilik haqi;
- materiallarni sertifikatlash va ularni materiallarni harid qilish bilan bog'liq bo'lgan texnik shartlarga muvofiq sinash bo'yicha xarajatlar;
- materiallarni tayyorlash va ularning joriy joylashish yoki foydalanish joyiga etkazib berish bo'yicha transport-tayyorlov xarajatlari. Ular tayyorlash, yuklash-tushirish ishlari, materiallarni barcha turdagi transport bilan ularning joriy joylashish yoki foydalanish joyiga tashish uchun tariflar (fraxt)ni to'lash bo'yicha xarajatlar, shu jumladan materiallarni tashishda xatarlarni sug'urtalash bo'yicha xarajatlardan tashkil topadi;
- materiallarni harid qilish bilan bevosita bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlar.

Savdo diskontlari, chegirmalar va boshqa shu kabi chegiruvchilar materiallarni harid qilish xarajatlarini belgilash chog'ida amalga oshiriladi.

Harid qilingan materiallarga xaq to'lash bilan bog'liq xarajatlar (akkreditiv ochish xarajatlari, o'tkazmalar uchun bank komissiyasi, materiallarni chet el valyutasiga harid qilish chog'ida valyutani konvertatsiyalash bo'yicha komissiya va boshqa bank hizmatlari), materiallarni harid qilish bo'yicha kontraktlarni tayyorlash, ro'yxatdan o'tkazish va yopish bilan bog'liq xarajatlar hamda aktivlarni harid qilish

bilan bevosita bog'liq bo'lmagan boshqa xarajatlar materiallarning tannarhiga kiritilmaydi, balki ular sodir bo'lgan hisobot davrida xarajatlar sifatida tan olinadi.

Muddatidan oldin to'lash natijasida yoki katta xajmda harid qilish natijasida yohud taraflarning kelishuvida nazarda tutilgan boshqa shunga o'xshash sabablarga ko'ra olingan pul chegirmalari harid qilingan materiallar qiymatini kamaytirmaydi, balki ular sodir bo'lgan hisobot davrida moliya-xo'jalik faoliyati natijalariga kiritiladi.

Paxta tozalash zavodlarida materiallar qarz kapitali hisobiga harid qilinganda yoki tayyorlanganda kredit (qarzlardan foydalanganlik uchun foizlar ko'rinishidagi xarajatlar) uning hisobidan butkul yoki qisman sotib olingan materiallarning tannarhiga kiritilmaydi.

Paxta tozalash zavodlarida materiallarni harid qilish bo'yicha xarajatlar ularning yuzaga kelishini tasdiqlovchi birlamchi hujjatlar asosida belgilanadi.

Materiallar harakatining hisobi material hisobi bo'yicha asosiy nizom talablariga javob beradigan va axborotlarni avtomatlashtirishga moslashgan tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtiriladi. YOziladigan hujjatlarning nusxalar soni va ularning hujjat aylanishi korxonaning xarakteriga, ishlab chiqarishni tashkil etish xususiyatlariga, moddiy-texnik ta'minotiga va hisobni tashkil etish tizimiga qarab belgilanadi. YOziladigan hujjatlarning nusxalar soni minimal bo'lib, EHMdan foydalanilsa bir nusxa, hisob qo'lda yuritilsa ikki nusxadan oshmasligi kerak.

Odatda materiallarni omborga ekspeditor olib keladi, materiallarni o'z vaqtida kelib tushishi ustidan nazoratni marketing bo'limi olib boradi. Marketing bo'limi mol yuboruvchilar tomonidan shartnoma majburiyatlarini bajarilishini nazorat qilib boradi, materiallarning sifati va kamomadi bo'yicha da'volarni rasmiylashtiradi, agar yuklar o'z vaqtida kelib tushmasa ularni qidirib topadi.

Paxta tozalash zavodlarida transport tashkilotlaridan yuklarni qabul qilib olishda ekspeditor idishlar, plombalar holatiga alohida e'tibor berishi kerak. Agar ular shikastlangan bo'lsa, yuklarni tekshirish va topshirishni talab qiladi. Basharti kamomad yoki nobudgarchilik aniqlansa, transport tashkilotiga yoki mol yuboruvchiga da'vo qilish uchun tijorat dalolatnomasi tuziladi.

Ekspeditor tomonidan materiallar omborga topshirilishda moddiy javobgar shaxs kelib tushgan materiallarning soni, sifati va assortimentini mol yuboruvchining hujjatlarini solishtirib ko'radi. Haqiqiy kelib tushgan materiallarning miqdori mol yuboruvchilarning hujjatlarida ko'rsatilganiga to'liq mos kelsa, moddiy javobgar shaxs tomonidan kirim orderi (M-4 shakl) yoziladi.

Dastlabki hujjatlar miqdori kamaytirish maqsadida kelib tushgan materiallarni kirimga olishda kirim orderi yozilmasdan, mol yuboruvchining hujjatlariga kirim orderining asosiy rekvizitlari ko'rsatilgan mahsus shtampa qo'yib, uni to'ldiradi.

Agar paxta tozalash zavodlarida materiallar mol yuboruvchining omboridan avtotransport bilan markazlashgan holda olib kelinsa, to'rt nusxada tovar-transport nakladnoyi (M-5 shakl va M-6 shakl) tuzilad va quyidagi maqsadlar uchun foydalaniladi:

- mol harid qiluvchiga-kirim orderini o'rniga materiallarni kirimga olish uchun;
- mol yuboruvchiga-material qiymatliklarni hisobdan chiqarish uchun;
- avtotransport xaydovchilariga ish haqi hisoblash uchun;
- bankka topshirish uchun.

To'lov hujjatlarisiz kelib tushgan materiallarni mol yuboruvchining hujjatlari bilan solishtirgan vaqtda aniqlangan tafovutlarni rasmiytirishda materiallarni qabul qilish to'g'risida dalolatnoma (M-7 shakl) tuziladi. Dalolatnoma qabul komissiyasi tomonidan tuzilib, unda quyidagi shaxslar qatnashishi shart: mol yuboruvchining vakili yoki betaraf tashkilotning vakili,

ombor mudiri va korxonaning ta'minot bo'limi vakili. Komissiyani korxona rahbari tayinlaydi. Dalolatnoma ikki nusxada tuziladi: birinchisi – kam yoki ortiqcha chiqqan materiallar summasini schyotlarda aks ettirish uchun buxgalteriyaga topshiriladi; ikkinchisi - da'vo rasmiylashtirish, ortiqcha chiqqan materiallar bo'yicha qo'shimcha to'lov talabnomasi yuborish to'g'risida mol yuboruvchilarga xabar berish uchun marketing bo'limiga topshiriladi. Dalolatnoma tuzilgan bo'lsa kirim orderini tuzish shart emas.

Kirim orderlari materiallar kelib tushgan kuni tuziladi. Laboratoriya tahlili va texnik ko'rigidan o'tadigan materiallar, shuningdek mas'uliyatli saqlashga qabul qilingan materiallar alohida saqlanadi. Ular bo'yicha kirim orderi yozilmaydi va tahlil natijalari aniqlanmaguncha ulardan foydalanishga ruxsat etilmaydi. Ularni hisobi maxsus daftarda yuritiladi. Oldin laboratoriya tekshirishida turgan materiallar so'ng mas'uliyatli saqlashga qabul qilingan materiallar ro'yxatga olinadi. Bu daftarni yuritilishi barcha turdagi mulklar butligini ta'minlaydi.

Paxta tozalash zavodlarida ombordan omborga materiallarni topshirishda yoki foydalanilmay qolgan materiallarni yoki ishlab chiqarishning qimmatli chiqindilarini, yaroqsiz mahsulot chiqindilarini, asosiy vositalar, inventar va xo'jalik jihozlarini tugatishdan olingan material qiymatliklarini tsexlar tomonidan omborga topshirishda nakladnoy-talabnomalar (M-11 shakl) tuziladi. Materiallarni topshiruvchi moddiy javobgar shaxslar nakladnoylarni ikki nusxada tuziladi: bittasi - materiallarni hisobdan chiqarish uchun tsexga beriladi, ikkinchisi - materiallarni qabul qilib olish uchun omborchiga beriladi.

Paxta tozalash zavodlarida materiallarni foydalanishga jo'natish, xo'jalik extiyojiga ishlatish, xo'jalik faoliyatida ishlatilmaydigan ortiqcha materiallarni chetga sotish muomalalari limit – zabor kartalar, to'lov nakladnoylari bilan rasmiylashtiriladi.

Limit – zabor kartasi (M-8, M-9 shakl) marketing bo'limi tomonidan ma'lum bir ishlab chiqarish xarajatlari kodiga o'tkaziladigan bir yoki bir necha materiallar turlari bo'yicha yoziladi.

Tsex tomonidan ishlab chiqarish turlarini bajarish uchun zarur bo'ladigan materiallarning hajmi va turlari korxonaning reja-ishlab chiqarish bo'limi tomonidan hisoblab chiqiladi.

Materiallarni sarflash va jo'natish limiti materiallarning mazkur turi bo'yicha tsex omboriga oy boshiga qolgan qoldiq miqdoriga kamaytiriladi.

Limit – zabor karta ikki nusxada yozilib, bittasi tsexga, ikkinchisi omborga beriladi. Materiallarni ombordan jo'natishda omborchi tsexning limit – zabor kartasiga, material oluvchi ombordagi limit – zabor kartaga imzo qo'yadi. Ikkala limit – zabor kartasida har gal materiallar olingandan so'ng foydalanilmagan limit summasi chiqarib qo'yiladi. Limitdan foydalanilganda oxirida limit – zabor kartalar korxona buxgalteriyasiga topshiriladi. Ularga asosan materiallarni ishlab chiqarishga sarflash hisobi rasmiylashtiriladi va belgilangan limitga rioya qilish ustidan nazorat qilinadi.

Limit – zabor kartasiga binoan ishlab chiqarishda foydalanilmagan materiallar hisobi ham yuritiladi. Bunda hech qanday qo'shimcha hujjat tuzilmaydi.

Limit – zabor kartalar sonini kamaytirish maqsadida oylik qirqib olinadigan talonlari bo'lgan choraklik limit – zabor kartalaridan ham foydalanish mumkin. Agar limit – zabor kartalar materiallar doim uzluksiz jo'natiladigan hollarda foydalanilsa, xo'jalik va boshqa extiyojari uchun bir yo'la materiallar jo'natilganda M -10 shakldagi akt-talabnoma qo'llaniladi. Akt-talabnoma materiallarni iste'mol qiluvchi bo'limlar tomonidan ikki nusxada yozilib, bittasi omborchining imzosi qo'yilib, material oluvchida qoladi, ikkinchisi mol oluvchining imzosi qo'yilib omborchida qoladi.

Paxta tozalash zavodlarida foydalanishga barcha limitdan ortiqcha jo'natiladigan materiallar uchun yoki materiallarni almashtirish uchun sababini

va ortiqcha sarf aybdorlari kodini ko'rsatib maxsus talabnoma yoziladi. Bunday hollarda materiallar ombordan korxona direktori, bosh muhandisi yoki ular tomonidan tayinlangan shaxslarning ruxsati bilan jo'natiladi.

Paxta tozalash zavodlarida materiallar chetga yoki korxona xududidan tashqarida joylashgan o'zining xo'jaliklari uchun jo'natilganda nakladnoylar (M-11 shakl) qo'llaniladi. Ular ta'minot bo'limi tomonidan naryadlar va shartnomalarga asosan uch nusxada yoziladi. Materiallar chetga avtotransportda jo'natilsa, tovar-transport nakladnoyi yoziladi.

1.3. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilash sharoitida materiallar harakati auditining uslubiy asoslari

Paxta tozalash zavodida mavjud materiallarni auditorlik tekshiruvdan o'tkazish ularning saqlanishi, tejamli va oqilona ishlatilishi, hisobga olishning to'g'ri tashkil etilishini aniqlashdan iborat. Shuningdek, hisobot ko'rsatkichlarining ishonchliligini va materiallar bilan bog'liq muomalalar hisobi va soliqqa tortish uslubining O'zbekiston Respublikasida amal qilayotgan qonunchilik hamda me'yoriy hujjatlarga muvofiqligini aniqlash lozim⁵. Ushbu maqsadga muomalalar mohiyatini, hamda nazorat tuzulmasi va buxgalteriya hisobi tizimini tekshiruvdan o'tkazish va risklarni baholash orqali erishiladi. Zahiralarini tekshirish, ular hajmi katta bo'lgan korxonalarda auditning asosiy qismi deb qaraladi.

Paxta tozalash zavodida materiallar bo'yicha hisobot ko'rsatkichlarining haqqoniyligini tekshirishda boshqa audit ob'ektlaridagi kabi, dastavval, balansning «Ishlab chiqarish zahirolari»(120-satr), «Tugallanmagan ishlab chiqarish (130-satr)», «Tayyor mahsulot»(140-satr), «Sotish uchun olingan tovarlar»(150-satr) degan moddalari, Bosh daftar, jurnal-orderlar va boshqa hisob registrlari orasidagi tenglikni aniqlash zarur. Tekshiruv jarayonida auditor quyidagilarni aniqlashi lozim:

⁵ ЎЗР Солик кодекси. –Т.: 2007й.


- materiallarning haqiqatda mavjudligi;
- materiallar bilan bog'liq barcha muomalalarning buxgalteriya hisobi schyotlarida to'liq va to'g'ri aks ettirilganligi;
- barcha materiallar korxona mulki ekanligi ya'ni ularga mulkiy huquq mavjudligi, qarz sifatida aks ettirilgan summalar esa majburiyat ekanligi;
- materiallarni va ular bilan bog'liq majburiyatlarni baholashning to'g'riligi;
- materiallarni hisobga olish tamoyillari to'g'ri tanlanilganligi va qo'llanilishining to'g'riligi.

Paxta tozalash zavodida materiallarni tekshirishda quyidagi ma'lumot manbalaridan foydalaniladi:

- moddiy boyliklarni qabul qilish, hisobga olish, saqlash va berishga aloqador me'yoriy hujjatlar;
- hisob siyosati to'g'risidagi buyruq;
- materiallar bilan bog'liq muomalalarni rasmiylashtirishga doir dastlabki hujjatlar;
- tashkiliy-huquqiy hujjatlar va materiallar;
- materiallarni hisobga olishga doir buxgalteriya hisobi registrlari va buxgalteriya hisobotlari.

Auditor tekshiruvga kirishish chog'ida tekshiruvning ushbu sohasi bo'yicha tanlangan hisob yuritish usullari va uslublari to'g'risida axborotga ega bo'lishi lozim. 4- sonli BXMS talablariga muvofiq korxonaning hisob yuritish siyosati to'g'risidagi buyrug'ida materiallarni hisobga olishning uslubiy jihatlari, xususan quyidagilar haqidagi axborotlar aks ettirilishi lozim⁶ (2-chizmaga qarang).

⁶ ЎзР АВ томонидан 486-сон билан рўйхатга олинган 4-сонли "Товар-моддий захиралар" БХМС.-Т.: 28.08.1998 й



2-chizma. Materiallarni hisobga olishning uslubiy jihati

Mijoz-korxona rahbariyati, u yoki bu hisob yuritish tamoili moliyaviy natijaga ta'sir qilishini bilsada, hisob siyosatiga kiritilgan ma'lumotlarning zarurligiga ko'p hollarda etarli ahamiyat bermaydi. Mana shuning oqibatida har xil qoidabuzarliklar kelib chiqadi. Ulardan eng ko'p tarqalgani tanlangan hisob yuritish usullariga yoki ularni qo'llashda izchillikka rioya qilinmasligi hisoblanadi.

Materiallarni hisobga olishda qo'llaniladigan dastlabki hujjatlar shakllari zavoddagi moddiy qiymatliklarning turlari va guruhlariga bog'liq. Qo'llaniladigan dastlabki hujjatlarda barcha zarur rekvizitlar bo'lishi shart. Bunday dastlabki hujjatlarga quyidagilar kiradi: moddiy qiymatliklarni olish uchun ishonchnomalar, kirim orderlari, materiallar, inventarъ va xo'jalik ashyolarini kirimga olish va hisobdan o'chirish dalolatnomalari, limit-zabor kartalari, talabnoma-nakladnoylar, tovar-transport nakladnoylari, ombor hisobi kartochkalari yoki daftari.

Tashkiliy-huquqiy hujjatlar va boshqa ma'lumot manbalariga quyidagilar kiradi⁷:

-zavod rahbarining buyrug'i (yoki farmoyishi) direktor kengashi majlisining bayonnomalari, ta'sischilar va boshqa komissiyalar yig'ilish qarorlari. Agar zavod ustav kapitalining miqdorini shakllantirish yoki o'zgartirish chog'ida ulush sifatida materiallar, inventarъ va xo'jalik ashyolari, tovarlar qo'shilgan bo'lsa, shuningdek

⁷ Жўраев Н., Холбеков Р., Абдувахидов Ф., Илхомов И. Бухгалтерия хисоби, иктисодий тахлил ва аудит. Дарслик. -Т.: 2007 й

agar dividendlar yoki daromadlar moddiy qiymatliklar bilan to'lansa ushbu hujjatlarni o'rganish auditor uchun o'ta muhim ahamiyat kasb etadi;

- paxta tozalash zavodida o'tkazilgan auditorlik tekshiruvlari o'tgan yillardagi hisobotlari;

- tovarlar, materiallar, xom ashyolar va hokazolarni etkazib berish shartnomalari;


- moddiy javobgarlik to'g'risidagi shartnomalar.

Auditorning zavodda xodimlari bilan rahbariyat tarkibidagi, buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimidagi o'zgarishlar to'g'risidagi suhbatlari tekshiruv uchun zarur qo'shimcha axborotlar berishi mumkin. Bunday o'zgarishlarning natijalari ishchi hujjatlarda rasmiylashtirilgan bo'lishi lozim.

Materiallar bilan bog'liq muomalalarni tekshirishda foydalaniladigan axborotlar zavodning buxgalteriya hisobotlari va hisob registrlarida aks ettiriladi. Bulardan «Buxgalteriya balansi» (1-shakl)da - materiallar to'g'risidagi ma'lumotlar balans aktivining II-«Aylanma mablag'lar» bo'limida joylashgan «Ishlab chiqarish zahiralar»moddasi (120 satr) va «tugallanmagan ishlab chiqarish» (130-satr) moddalarining ma'lumotlari tekshiriladi.

Materiallarni hisobga olishga doir buxgalteriya registrari xilma-xil bo'lishi mumkin. Ular paxta tozalash zavodida qo'llanilayotgan buxgalteriya hisobi shakli va usullariga, hamda mavjud materiallar ning turlari va guruhlariga bog'liq. Ammo, har qanday holatda ham auditor 1010-1090, 1080, 1510 va 1610 schyotlar bo'yicha analitik va sintetik hisob registrlarini, saldo qaydnomaslari, omborxona hisobi kartochkalari, daftarlar, inventarizatsiya materiallarini hamda tugallanmagan ishlab chiqarishlar (2010, 2110, 2310-schetlar) bo'yicha hisob registrlarini tahlil qilib chiqishi lozim.


Paxta tozalash zavodida materiallar bilan bog'liq xo'jalik muomalalarini auditorlik tekshiruvidan quyidagi ketma-ketlikda o'tkazish maqsadga muvofiq (3-chizmaga qarang).



3-chizma. Materiallarni tekshirish ketma-ketligi

Materiallarni auditorlik tekshiruvidan o'tkazish buxgalteriya hisobotida katta xatolarga yo'l qo'yish xavfini kamaytiradi. Shuning uchun, materiallarni tekshirishni boshlashdan oldin auditor eng ko'p uchraydigan qoida buzarlilarni aniqlashi va shuni hisobga olgan holda zarur tekshiruv amallarini tanlashi kerak. Paxta tozalash zavodida materiallar to'g'risidagi axborotlarning ishonchliligi bo'yicha auditor fikrining shakllanishiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi⁸ (3-chizmaga qarang).

⁸ Шеремет А.Д., Суйц В.П., Аудит: Учебник.-5-е изд., перераб и доп.-М.: ИНФРА-М, 2009г.- 448 с.



3-chizma. Auditor fikrining shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar.

Paxta tozalash zavodida materiallar qoldiqlarini aks ettirish va sotilgan mahsulot tannarxini hisoblashning to'g'riligiga ta'sir qiluvchi muomalalar quyidagilar natijasida yuzaga keladi:

a) buxgalteriya hisobotining buzilishi:

- oldingi davrlarda hisobdan o'chirilgan, hamda foydalilik xususiyatlarini to'liq yoki qisman yo'qotgan moddiy qiymatliklar inventarizatsiya ma'lumotlariga

qo'shilishi; yo'ldagi tovarlarni yoki sotilib bo'lingan tovarlarni ikki marta hisobga olish;

- uchinchi shaxslar omborida saqlanayotgan ishlab chiqarish zahiralarini qoldig'ining oshirib ko'rsatilishi; komissiyaga qabul qilingan ya'ni balansdan tashqari schyotlarda hisobda turgan materiallar ham inventarizatsiya ma'lumotlariga qo'shilishi va shunga o'xshash;

b) sui'ste'mol qilishlar:

-zavodning bir necha xodimlari hatti-harakati yoki saqlash ustidan etarli nazorat o'rnatilmaganligi oqibatida qiymatliklarning o'g'irlanishi;

-olingan tovarlar hujjatlarda ko'rsatilganidan kam yoki sifatsiz bo'lsa, ularni qabul qilish uchun mas'ul shaxslarning mol etkazib beruvchilardan pora (pul yoki sovg'a ko'rinishidagi buyum) olish hollari;

-haqiqatda yo'q xaridorlarning rekvizitlarini ko'rsatish yo'li bilan jo'natish hujjatlarini qalbakilashtirish.

Yuqorida ko'rsatilganidek, hisobot davri davomida to'liq yoki to'g'ri aks ettirilmaganligi sababli yil oxirida zahiralar oshirib yoki pasaytirib ko'rsatilishi mumkin.

Fikrimizcha, xaridlar quyidagi ikkita holning bittasi sababli pasaytirib ko'rsatilishi mumkin:

1) Muomalalarni hisobda aks ettirmaslik. Bunday muomalalar kreditor qarzlarni tekshirish chog'ida aniqlanishi mumkin. Masalan, buxgalteriya hisobi registrlaridagi yozuvlarni taqdim qilingan, olingan moddiy qiymatliklar uchun mol etkazib beruvchilarga to'langanlikni isbotlovchi schyotlar, shartnomalar, isbotlovchi pul hujjatlari ma'lumotlari bilan solishtirib, auditor ayrim schyotlarning buxgalteriya hisobi registrlarida aks ettirilmay qolganligini aniqlashi mumkin.

2) Muomalalar noto'g'ri turkumlangan. Materiallarni sotib olish qiymati ularni sotib olish bilan bog'liq bo'lgan barcha xarajatlardan iborat. Lekin, bunday sarflarning bir qismi yoki ayrim turlari (masalan, sotib olinayotgan xom ashyoning

sifatini aniqlashga doir ekspert xizmati qiymati) materiallar qiymatiga qo'shilmasdan, birdaniga sarflarga olib borilgan bo'lishi mumkin.

Xaridlar hajmi qalbaki xaridlar yoki muomalalarni aks ettirish kabi xarajatlar noto'g'ri turkumlangan hollarda oshirib ko'rsatilgan bo'lishi mumkin. Bunday faktlarni aniqlash uchun xarajatlarni tanlab tekshirish va zarur analitik amallarni bajarish lozim.

Shunday qilib, paxta tozalash zavodida materiallar harakatining auditini o'tkazishda audit asoslari fanida qo'llaniladigan audit usullarining eng qulay hamda samarali usulidan foydalanish auditorlik tekshiruvining samaradorligini oshiradi deb hisoblaymiz.

2-Bob. Yakkabog' "Oq-oltin paxta tozalash zavodi» OAJda materiallar harakati hisobini tashkil etishning amaliyoti va uni takomillashtirish

2.1. Yakkabog' "Oq-oltin paxta tozalash zavodi» OAJda materiallar xarakati hisobining dastlabki hisobi va uning amaliyoti

Yakkabog' "Oq-oltin paxta tozalash zavodi» OAJda materiallar asosan quyidagilardan kelib tushadi: chet ellik va mamlakatimizdagi moletkazib beruvchilardan; moddiy javobgar shaxslar orqali naqd pulga sotib olinadi; o'zining ishlab chiqarilishidan; asosiy vositalarni hisobdan chiqarishdan inventarizatsiya natijasida ilgari hisobga olinmagan materiallarni kirim qilishdan, bepul olishdan va x.k. Har bir xo'jalik yurituvchi sub'ektda ishlab chiqarish rejasini bajarish uchun yil boshida materiallarga bo'lgan talab aniqlanadi va tegishli ta'minot tashkilotlari bilan shartnomalar tuziladi.

Yakkabog' "Oq-oltin paxta tozalash zavodi» OAJda moddiy resurslar bilan ta'minlashga moddiy texnika ta'minoti bo'limi javobgardir. Ushbu bo'lim moddiy texnika ta'minoti bo'yicha tuzilgan shartnomalarning bajarilishi, ishlab chiqarish jarayoni uchun zarur bo'lgan moddiy qiymatliklarning o'z vaqtida kelib tushishi va kiringa olinishi ustidan nazorat olib boradi. SHuning uchun ham ushbu bo'limda shartnomalarning bajarilishi bo'yicha vedomostlar mashinogrammalarda operativ hisob yuritiladi. Ushbu vedomostlar mashinogrammalarda shartnomalarning qay darajada bajarilishi baholardagi va assortimentlardagi va miqdor o'zgarishlari aks ettiriladi. Iqtisodiy xizmat xodimlari esa operativ hisobning to'g'ri va o'z vaqtida yuritilishi hamda hisobotlarning belgilangan vaqtlarda tuzilishi ustidan nazorat olib boradi⁹.

Mol etkazib beruvchilar moddiy qiymatliklarni jo'natish bilan birga, o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun asos bo'luvchi tegishli hujjatlarni to'lov talabnomalari, tovar-transport yuk xatlari, temir yo'l yuk xatlari va unga ilova qilinadigan kvitantsiyalarni jo'natadilar. Moddiy

⁹ А.Сотволдиев. Замоновий бухгалтерия Ҳисоби. –Т.: ЎзБАМА. 2004. 123-124 бетлар.

qiymatliklarning kelib tushishini aks ettiruvchi va hisob-kitob hujjatlar buxgalteriyaga kelib tushgandan so'ng ularning to'g'riligi va asosliligi tekshiriladi va ta'minot bo'yicha mas'ul shaxslarga beriladi.

Ta'minot bo'limi xodimlari moddiy-qiymatliklarni hujjatlardagi ko'rsatkichlarga va shartnoma talablariga mos kelishi nuqtai-nazaridan tekshirib ko'radilar. Tekshirishdan so'ng hisob-kitob va boshqa to'lov hujjatlariga to'lash uchun roziligini bildirib belgi qo'yadilar. Ta'minot bo'limida xo'jalik yurituvchi sub'ektga kelib tushayotgan moddiy qiymatliklarni hisobga olish maxsus "kelib tushayotgan yuklarni hisobga olish jurnali" yuritiladi. Unda mol etkazib beruvchilarning manzili, shartnoma nomeri va sanasi va boshqa ko'rsatkichlar ilova qismida to'langanligi haqidagi belgilar qo'yiladi.

To'lov talabnomalari ta'minot bo'limida tekshirib ko'rilgandan so'ng buxgalteriyaga, transport tashkilotining kvitantsiyasi esa ekspeditorga beriladi. Ekspeditor transport haydovchisidan yoki tashkilotidan materiallarni qabul qilib olishi zarur.

Ekspeditor stantsiyada yukni qabul qilib olish jarayonida sinchiklab tekshirishi zarur. Agar hujjatdagi ko'rsatkichlardan farq qilsa yoki undagi materiallar buzilgan bo'lsa, tijorat dalolatnoma tuzilishi zarur. Ushbu dalolatnoma transport tashkiloti yoki mol etkazib beruvchilarga da'vo qilish uchun asos bo'ladi.

Boshqa shaxarlardan moddiy qiymatliklarni shartnomaga asosan paxta tozalash zavodining o'zi olib kelishi lozim bo'lsa, ekspeditorga naryad va ishonch qog'ozi beriladi. Unda mol etkazib beruvchidan olish zarur bo'lgan moddiy qiymatliklar ro'yxati ko'rsatiladi. Ekspeditor olib kelgan moddiy qiymatliklarni Yakkabog' "Oq-oltin paxta tozalash zavodi» OAJ ombor mudiriga kirim orderiga yoki yuk xatiga asosan topshiradi. Ushbu hujjatlarning tegishli joylariga qabul qilib olganligi to'g'risida ombor mudiri, topshirganligi to'g'risida ekspeditor imzo chekadilar.

Mol etkazib beruvchilar jo'natgan moddiy qiymatliklarni omborga qabul qilish jarayonida komissiya tarkibida mol etkazib beruvchi tomonidan vakil qatnashmasa, unda manfaatdot bo'lmagan tashkilotdan vakil qatnashishi shart. Komissiya materiallarni qabul qilish haqida dalolatnoma tuzadi. Basharti dalolatnomadagi miqdor va sifat ko'rsatkichlari mol etkazib beruvchilar moddiy qiymatliklarga ilova qilib jo'natgan hujjatlardagi ko'rsatkichlarga mos kelmasa, komissiya tuzgan dalolatnoma transport tashkioti va mol etkazib beruvchiga da'vo qilish uchun asos bo'ladi.

Yakkabog' "Oq-oltin paxta tozalash zavodi» OAJda materiallar tashish avtotransport bilan amalga oshirilsa, dastlabki hujjat sifatida tovar-transport yuk xati qo'llaniladi va u yuk jo'natuvchi tomonidan to'rt nusxada tuziladi. Birinchi nusxasi materiallarni hisobdan o'chirish uchun asos bo'ladi, ikkinchi nusxada mol oluvchi tashkilot materiallarni kiringa olish uchun asos bo'ladi, uchinchisi transport tashkilotiga xizmati uchun qo'yiladigan schyotga ilova qilinadi. To'rtinchi nusxasi transport haydovchisining yo'l varaqasiga ilova qilinadi va mehnatga haq to'lash uchun asos bo'ladi. Mol oluvchi xo'jalik yurituvchi sub'ekt tovar-transport yuk xatida ko'rsatilgan materiallarni omborga kiringa olish jarayonida farq aniqlansa, bu materiallarni qabul qilish dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi¹⁰.

YAKkabog' "Oq-oltin paxta tozalash zavodi» OAJning o'zida ishlab chiqarish materiallarni va qoldiqlarni hamda asosiy vositalarni hisobdan chiqarish jarayonida olingan materiallarni, ehtiyot qismlarni hamda boshqalarni ikki nusxada tuziladigan yuk xatlarga asosan kiringa olinadi.

Xisobdor shaxs avans tariqasida olgan pulni sarflaganligi to'g'risida avans hisobotini taqdim qilganda yuqorida nomlari zikr etilgan hujjatlarni o'z hisobotiga ilova tariqasida tariqasida qo'shib topshiradi.

¹⁰ Пошерстник Н.В. Бухгалтерский учет на современном предприятии: учеб.-практ. пособ. - М.: Проспект, 2010. – 560 с.

Materiallarning har biri o'z guruxi ichida turlari, o'lchamlari, sortlari, markalari va boshqa ko'rsatkichlari bo'yicha guruxlarga ajratiladi. Materiallarning har biriga nomenklatura nomerlari beriladi va ularni maxsus reestrlarga yozib qo'yiladi. Ushbu reestrlar nomenklatura baholari deyiladi va unda har bir materiallarning qat'iy hisob bahosi ko'rsatiladi.

Materiallar xo'jalik yurituvchi sub'ekt ishlab chiqarish zaruriyati xo'jalik ehtiyojlari uchun va ortiqcha va keraksiz bo'lganlarini esa chetga sotishi mumkin. SHuningdek, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar ayrim materiallarni chetga qayta ishlash uchun berishi mumkin.

YaAkkabog' "Oq-oltin paxta tozalash zavodi» OAJda materiallarning to'g'ri sarflanishini nazorat qilish va rasmiylashtirish uchun tegishli tashkiliy tadbirlar ishlab chiqiladi. Moddiy qiymatliklarining tejamli sarflanishining zaruriy shartlaridan biri reja-iqtisod bo'limi tomonidan har bir mahsulot (xizmat) va bajariladigan ishlar birligiga sarflanadigan me'yorlar hamda ular asosida belgilanadigan limit katta ahamiyatga egadir. Barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga moddiy qiymatliklarning sarflanishi va chetga berilishiga ruxsat beruvchi shaxslarning ro'yxati tuzilishi hamda ularning imzolarini nusxasi buxgalteriyada bo'lishi shart. Berilayotgan materiallar aniq o'lchangan, sanalgan va tortilgan bo'lishi zarur.

Materiallarni omborlardan berilishi eng avvalo paxta tozalash zavodida ishlab chiqarish va mehnatning qanday tashkil qilinganligi va qaysi sohaga tegishli ekanligiga bog'liqdir. Ushbu xususiyatlardan kelib chiqqan holda moddiy qiymatliklarni qay tarzda berish va rasmiylashtirishning tartiblari belgilanadi.

YaAkkabog' "Oq-oltin paxta tozalash zavodi» OAJda ishlab chiqarishga va boshqa ehtiyojlar uchun har kundagi sarflanadigan materiallar limit-zabor kartalari bilan rasmiylashtiriladi. Ularni reja-iqtisod yoki ta'minot bo'limi bir yoki bir necha nusxada bir oy muddatga yozib beradi. Ularda xo'jalik jarayonining turi, ombor nomeri, o'lchov birligi, xarajat ishlari va oylik

sarfning limiti ko'rsatiladi. Limit-zabor kartasining bir nusxasi oluvchiga, ikkinchisi esa ombor mudiriga beriladi va materiallar limitda belgilangan miqdorda beriladi. Limit-zabor kartalarining qo'llanishi har kuni ombordan ishlab chiqarish va boshqa maqsadlar uchun beriladigan materiallar hisob-kitobini engillashtiradi va bir martalik hujjatlarni qisqartiradi.

Agar materiallar ombordan muntazam berilmasa yuk xati-talabnomalarga asosan beriladi. Bunda yuk xati talabnoma ikki nusxada yoziladi va bir nusxasi omborchida, ikkinchisi esa materiallarni olgan shaxsga beriladi. Boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga materiallarni berish uchun ikki nusxada "Chetga materiallarni berish" yuk xati talabnomasi yoziladi. Birinchi nusxasi omborchida qoldiriladi va u materiallarni hisobdan o'chirish, shuningdek, hisob-to'lov operatsiyalari uchun asos bo'ladi, ikkinchi nusxasi esa materiallarni qabul qilgan shaxsga beriladi.

Yakkabog' "Oq-oltin paxta tozalash zavodi» OAJda materiallar boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga avtotransport orqali jo'natilsa, yuk xati o'rniga tovar-transport yuk xati yoziladi. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda materiallar sarfini dastlabki xujjatlarda aks ettirmasdan ombor hisob kartochnasida yuritish ham mumkin. Bunda ishlab chiqarish bo'limlarining materiallarni olish huquqiga ega bo'lgan vakillari bevosita ombor hisob kartochnasiga imzo chekadilar.

Ishlab chiqarish hajmi katta bo'lmagan va materiallarning xarakati bilan bog'liq bo'lgan xo'jalik jarayonlari unga ko'p bo'lmagan zavodlarda materiallarning sarfi maxsus dastlabki hujjatlarni rasmiylashtirmasdan amalga oshiriladi. Bunday paxta tozalash zavodida haqiqatda sarflangan materiallar mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish to'g'risidagi hisobot yoki dalolatnomalarda aks ettiriladi. Dalolatnoma yoki hisobotlar har o'n kunda mas'ul shaxs tomonidan tuziladi va xo'jalik yurituvchi sub'ekt rahbari tasdiqlagandan so'ng ular moddiy javobgar shaxslardan tegishli materiallarni hisobdan o'chirish uchun asos bo'ladi.


Yakkabog' "Oq-oltin paxta tozalash zavodi» OAJda belgilangan kunlarda materiallarning kirimi va chiqimi to'g'risidagi barcha hujjatlarni qabul qilish-topshirish reestirining birinchi nuxasi bilan birga buxgalteriyaga topshiriladi, reestrning ikkinchi nusxasiga buxgalter dastlabki hujjatlarni qabul qilganligi to'g'risida imzo chekib moddiy javobgar shaxsga qaytarib beriladi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilash sharoitida paxta tozalash zavodlar faoliyatini rivojlantirish iqtisodiyotning barqarorligi ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Shu boisdan, paxta tozalash zavodlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va ularga shart-sharoitlar yaratib berish maqsadida davlatimiz tomonidan bir qator qonuniy hujjatlari ishlab chiqilgan¹¹. Ushbu qonuniy hujjatga muvofiq, chet el valyutasidagi operatsiyalarini buxgalteriya hisobi va hisobotlarda aks ettirish tartibi¹² bo'yicha qonuniy asoslarning amaliyotga tadbiiq etilishi mulkchilik shaklidan, faoliyat turidan, idoraviy bo'ysunuvidan qat'iy nazar O'zbekiston Respublikasi hududida valyuta operatsiyalarini amalga oshiruvchi barcha sub'ektlar uchun muhim sharoitlar yaratilganligidan dalolat beradi. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda chet el valyutasi bo'yicha amalga oshirilgan operatsiyalarni buxgalteriya hisobi va hisobotlarida to'g'ri rasmiylashtirish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar belgilab berilgan.

Shu boisdan, yakkabog' "Oq-oltin paxta tozalash zavodi» OAJ tomonidan xorijdan sotib olinayotgan materiallar bo'yicha hisob-kitoblar milliy valyutada - so'mda buxgalteriya hisobini yuritishi va tegishli tashkilotlarga belgilangan muddatlarda moliyaviy hisobotlarni taqdim etishi qonuniy hujjatlar bilan tartibga solib turiladi. Korxona tomonidan quyidagi operatsiyalarni amalga oshirishni nazarda tutuvchi bitimlar chet el valyutasidagi operatsiyalar hisoblanadi (4-chizmaga qarang).

¹¹ ЎзР ВМ 2001 йил 25 октябрдаги 422-сонли "Ички валюта бозорида алмашув курсларини бирхиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги қарори.

¹² ЎзР МВ, ДС, МВС, МБнинг 2001 йил 7 ноябрдаги 119, 2001-111, 34 ва 205-В-сонли қарорлари билан тасдиқланган "Чет эл валютасидаги операцияларнинг бухгалтерия ҳисоби, статистика ва бошқа ҳисоботларда акс эттириш тартиби тўғрисида"ги Низоми.



6-chizma. Chet el valyutasidagi operatsiyalarning tarkiblanishi.

Chet el valyutasida ifodalangan xo'jalik operatsiyalari, aktivlar va majburiyatlarni so'mga qayta hisoblashda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan o'rnatilgan chet el valyutasining so'mga nisbatan kursining o'zgarishiga qarab ijobiy yoki salbiy kurs farqi buxgalteriya hisobi aks ettirilib boriladi va ularni natijalari tegishli xarajat ob'ektlariga olib boriladi.

Chet el valyutasidagi operatsiyalar, shu jumladan quyidagi operatsiyalar buxgalteriya hisobida ular amalga oshirilgan sanada O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo'yicha so'm ekvivalentida aks ettiriladi: kassadagi, bankdagi depozit va ssuda hisobraqamlaridagi, akkreditivlardagi valyuta mablag'lari, valyutadagi ssuda qarzlari; chet el valyutasidagi debitorlik va kreditorlik qarzlari, kreditlar; tuzilgan shartnomalar bo'yicha chetdan keltirilgan tovar-moddiy boyliklar va boshqa aktivlarni bojxona yuk deklaratsiyasini rasmiylashtirish sanasida kirim qilish; chet el valyutasida bojxona to'lovlarini amalga oshirish; chet el valyutasida ifodalangan pul hujjatlar; chet el valyutasidagi qimmatli qog'ozlar.

Yakkabog' "Oq-oltin paxta tozalash zavodi» OAJda buxgalteriya hisobini to'g'ri tashkil qilish maqsadida chet el valyutasidagi ayrim operatsiyalarni so'mga qayta hisoblash kuniga qonuniy hujjatlarga muvofiq tartibga solinishi belgilab qo'yilgan. Ushbu standartga muvofiq, chet el valyutasidagi operatsiyalar ushbu valyutaning so'mga nisbatan Markaziy bankning operatsiya amalga oshirilgan kunidagi kursi bo'yicha so'mda qayta hisoblanishi lozim.

Buxgalteriya hisobida chet el valyutasini xarid qilish va sotish Markaziy bankning valyutani xarid qilish yoki sotish kuniga bo'lgan kursi bo'yicha aks ettiriladi. Chet el valyutasini Markaziy bank kursidan past yoki yuqori qiymatda sotish (xarid qilish) natijasida vujudga keladigan kurs farqlari xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy natijalarida moliyaviy faoliyatdan daromadlar (xarajatlar) sifatida hisobga olinishi maqsadga muvofiqdir.

2.2. Yakkabog' "Oq-oltin paxta tozalash zavodi» OAJda xorijdan sotib olingan materiallar xarakati bo'yicha valyuta kurslaridagi farqlar hisobi

Yakkabog' "Oq-oltin paxta tozalash zavodi» OAJda balansning valyuta moddalarini har hisobot oyining oxirgi sanasida va xo'jalik operatsiyalarni amalga oshirish sanasida Markaziy bank kursi bo'yicha qayta baholashni amalga oshiradilar. Shu boisdan, xorijdan sotib olingan materiallarni buxgalteriya hisobi va hisobotlarda aks ettirish, qayta baholash hamda kurs farqlarini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Bunda buxgalteriya balansining valyuta moddalari tarkibiga kiritiladigan va ularni qayta baholashga quyidagilarni kiritish maqsadga muvofiqdir: kassadagi, bankdagi depozit va ssuda schyotlaridagi valyuta mablag'lari, shu jumladan akkreditivlar; chet el valyutasidagi pul hujjatlari; chet el valyutasida ifodalangan qisqa muddatli va uzoq muddatli investitsiyalar; chet el valyutasida ifodalangan debitorlik va kreditorlik qarzlari, kreditlar hamda pul qarzlari.

Buxgalteriya balansining valyuta moddalari tarkibiga kiritiladigan va qayta baholanmaydigan operatsiyalarga quyidagilarni kiritish maqsadga muvofiqdir: chet el valyutasiga sotib olingan xo'jalik yurituvchi sub'ektning asosiy vositalari, nomoddiy aktivlari, o'rnatiladigan asbob-uskunalar, kapital qo'yilmalari, materiallari; ustav kapitali miqdori va xo'jalik yurituvchi sub'ektning, shuningdek chet el investitsiyalariga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning ta'sischi ulushlarining nisbatlari.

Shuningdek, balansning valyuta moddalarini har oy qayta baholash natijasida vujudga keladigan kurs farqlarini to'g'ridan-to'g'ri olib borish usulini qo'llash orqali moliyaviy natijalarga hisobdan chiqarilishi lozim va buxgalteriya hisobida quyidagi schyotlarda aks ettiriladi: ijobiy kurs bo'yicha farq summasi 9540-«Valyutalar kurslari farqidan daromadlar» schyotining kreditiga va salbiy kursdagi farq summasi 9620-«Valyutalar kurslari farqidan zararlar» schyotida hisobga olinishi lozim.

Agar balansning valyuta moddalarini har oy qayta baholash natijasida vujudga keladigan kurs farqlarni jamg'arish usuli bo'yicha hisoblanganda, ular vujudga kelgan vaqtda moliyaviy natijalarga olib borilmaydi va buxgalteriya hisobida quyidagi schyotlarda aks ettiriladi: ijobiy kursdagi farq summasining joriy qismi 6230-«Boshqa kechiktirilgan daromadlar» schyoti, uzoq muddatli qismi esa , 7230-«Boshqa uzoq muddatli kechiktirilgan daromadlar» schyotlari kreditida. Salbiy kursdagi farq summasining, joriy qismi 3290-«Boshqa kechiktirilgan xarajatlar»schyotiga, uzoq muddatli qismi 0990-«Boshqa uzoq muddatli kechiktirilgan xarajatlar» schyotlarining debetiga o'tkaziladi.

Yakkabog' "Oq-oltin paxta tozalash zavodi» OAJda jamg'arish usulini qo'llash natijasida jamg'arilgan kurs farqlari moliyaviy natijalarga quyidagi tartibda olib borilishi lozim: chet el valyutasidagi debitorlik va kreditorlik qarzlari, ularning to'lanishi bo'yicha; boshqa hollarda - balansning tegishli valyuta moddalari bilan xo'jalik operatsiyalarini amalga oshirilishi bo'yicha.

Bu vaqtda quyidagicha provodka beriladi: ijobiy kurs farqlari hisobdan chiqarilganda: Dt 6230, Kt 9540. Salbiy kurs farqlari hisobdan chiqarilganda: Dt 9620, Kt 3290.

Kurs farqlaridan vujudga kelgan uzoq muddatli kechiktirilgan daromadlar va xarajatlarning joriy qismini o'tkazish buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettirish lozim: ijobiy kurs va farq summasi bo'yicha vujudga kelgan uzoq muddatli kechiktirilgan daromadlarning joriy qismi o'tkazilganda, 7230-“Boshqa uzoq muddatli kechiktirilgan daromadlar” schyoti debetlanib, 6230-“Boshqa kechiktirilgan daromadlar” schyoti kreditlanadi. Salbiy kurs farqi bo'yicha vujudga kelgan uzoq muddatli kechiktirilgan xarajatlarning joriy qismi o'tkazilganda, 3290-“Boshqa kechiktirilgan xarajatlar” schyoti debetlanib, 0990-«Boshqa uzoq muddatli kechiktirilgan xarajatlar» schyotini kreditlash lozim.

Jamg'arish kurs farqlari bo'yicha moliyaviy natijalarni aniqlashda buxgalteriya hisobi schyotlar rejasida quyidagicha aks ettirish maqsadga muvofiq bo'lar edi: ijobiy kurs farqi bo'yicha 6230-“Boshqa kechiktirilgan daromadlar” schyoti debetlanib, 9540-“Valyutalar kurslari farqidan daromadlar” schyoti kreditlanadi. Salbiy kurs farqi bo'yicha 9620-“Valyutalar kurslari farqidan zararlar” schyoti debetlanib, 3290-“Boshqa kechiktirilgan xarajatlar” schyoti kreditlanadi.

Kurs farqlarini buxgalteriya hisobida yuritishni soddalashtirish maqsadida kechiktirilgan daromadlar va xarajatlar schyotlari mos ravishda aks ettirilgan ijobiy va salbiy kurs farqlarini hisobdan chiqarishni hisobot oyining oxiridagi chet el valyutasining bir birligiga to'g'ri keladigan kurs farqining o'rtacha miqdori bo'yicha amalga oshirishga ruxsat etiladi.

Yakkabog' “Oq-oltin paxta tozalash zavodi» OAJda kurs farqlarini hisobga olishda qo'llanilayotgan usullar ularning hisob siyosatida aks ettirilishi, hisob siyosatini kalendar yil davomida o'zgartirmasligi lozim¹³.

¹³ ЎзР БҲ МС 1-сонли БҲ МС “Ў исоб сиёсати ва молиявий Ҳ исобот”, 56-банди.-Т.: 1998 йил 26 июлда 17-07-86-сон.

Kurs farqlarini buxgalteriya hisobida yuritishni soddalashtirish maqsadida kechiktirilgan daromadlar va xarajatlar schyotlarida mos ravishda aks ettirilgan ijobiy va salbiy kurs farqlarini hisobdan chiqarishni hisobot oyining oxirida chet el valyutasining bir birligiga to'g'ri keladigan kurs farqining o'rtacha miqdori bo'yicha amalga oshirish usuliga misol keltiramiz. Kompaniyaning balans moddalarida hisobot davrining boshiga quyidagi ma'lumotlar mavjud bo'lgan (1-jadvalga qarang):

1-jadval

YAKkabog' "Oq-oltin paxta tozalash zavodi» OAJda kurs farqlarini o'rtacha miqdorda hisobdan chiqarish

Balansdagi valyuta moddasi-ning nomi	Summa (\$)	Milliy valyutadagi summa (so'm)			Balansning valyuta moddalarini har oyda qaytadan baholash natijasida yig'ilgan kurs farqi	
		MB kursi 1 \$ = 1600 so'm	MB kursi 1 \$ = 1610 so'm	MB kursi 1 \$ = 1650so'm	Ijobiy 6230- "Boshqa kechikti- rilgan daromad- lar" schyoti- ning krediti bo'yicha	Salbiy 3290- "Boshqa kechik- tiril-gan xara- jatlar" schyoti- ning debeti bo'yicha
Valyuta mablag'lari	1000	1 600 000	1610 000	1 650 000	10 000 (1610000-1600000) 40 000 (1650000-1610000)	
Debitor qarz	3000	4 800 000	4 830 000	4 950 000	30 000 (4830000-4800000) 120 000 (4950000-4830000)	
Kreditor qarz	500	800 000	805 000	825 000		5000 (800000-805000) 20000 (825000-805000)
Jami	4500				200 000	25 000

Bir birlik chet el valyutasiga to'g'ri keladigan o'rtacha kurs farqi quyidagicha hisoblanadi:

$$\frac{200\,000\text{ s} + 25\,000\text{ s}}{4500\text{ \$}} = 50\text{ so'm}$$

Yakkabog' "Oq-oltin paxta tozalash zavodi» OAJda 2000\$ kreditor qarzini to'ladi. Kreditor qarzi bo'yicha moliyaviy faoliyat natijalariga o'tkaziladigan salbiy kurs farqi 100 000 so'm ($2000 \$ \times 50$ so'm). Ushbu summaga 9620 schyoti debetlanib, 6990-"Boshqa majburiyatlar" yoki pul mablag'larini hisobga oladigan schyot kreditlanadi.

SHuningdek, debitorlardan 1500\$ undirib olindi. Debitor qarz bo'yicha moliyaviy natijalarga o'tkaziladigan ijobiy kurs farqi 75 000 so'm ($1500 \text{ dollar} \times 50$ so'm). Ushbu summaga 4890-"Boshqa debitor qarzlari" schyoti yoki pul mablag'larini hisobga oladigan schyotlar debetlanib, 9540-"Valyutalar kurslari farqidan daromadlar" schyoti kreditlanadi.

Kurs farqlarini hisobga olishda jamlash usulidan to'g'ri olib borish usuliga o'tishda balansning valyuta moddalarini har oyda qayta baholash natijasida yig'ilgan kurs farqlari xo'jalik yurituvchi sub'ektning hisob siyosati qabul qilingan kalendar yilining oxirigacha har oyda bir me'yorda buxgalteriya hisobi va hisobotida hisobdan chiqarib borilishi maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Shunday qilib, Yakkabog' "Oq-oltin paxta tozalash zavodi» OAJda xorijdan sotib olingan materiallari bo'yicha kurslardagi tafovutlarni to'g'ri hisobga olishda Respublikamiz Markaziy banki tomonidan milliy valyutamizga nisbatan o'rnatilgan valyuta kurslariga muvofiq hisoblab chiqilgan farq summasini olingan materiallar tannarxiga olib borish, aksariyat holatlarda esa ko'rilgan zararlarni davr xarajatlari hisobiga olib borish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

2.3. Yakkabog' "Oq-oltin paxta tozalash zavodi» OAJda materiallar harakati hisobi va uni takomillashtirish

Yakkabog' "Oq-oltin paxta tozalash zavodi» OAJda xorijdan materiallar sotib olishlari mumkin. Bunday chetdan keltirilgan materiallar va boshqa

aktivlarning xarid qiymatini aniqlash muhim ahamiyatga ega. SHu boisdan ularning qiymatini quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$S = SHq + T + Bx.,$$

Bu erda, S – chetdan keltirilgan materiallar va boshqa aktivlarning xarid qiymati; SHq – bojxona yuk deklaratsiyasini to'ldirish kunidagi Markaziy bank kursi bo'yicha hisoblangan chetdan keltirilgan materiallar va boshqa aktivlarning shartnoma qiymati;

T – bojxona to'lovlari; Bx – chetdan keltirilgan materiallar va boshqa aktivlarni sotib olish bilan bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlar. Ushbu xarajatlar O'zbekiston Respublikasida amal qilinayotgan qonuniy xujjatlarga muvofiq tartibga solinishi ko'zda tutilgan¹⁴.

Yakkabog' "Oq-oltin paxta tozalash zavodi» OAJda xoriждан sotib olingan materiallar uchun hisoblangan qo'shilgan qiymat solig'i summasi harid qiymatiga qo'shilmasligi, balki umumiy belgilangan tartibda byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'ini aniqlashda chegirib tashlanadi. Qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchi bo'lmagan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar xoriждан sotib olingan materiallari uchun hisoblangan qo'shilgan qiymat solig'i summasini xarid qiymatiga qo'shilgan holda hisobga olishlari lozim.

Xoriждан sotib olingan materiallar va boshqa aktivlarni (konsignatsiya shartnomasi bo'yicha chetdan keltirilgan tovarlar bundan mustasno) xarid qilish bilan bog'liq operatsiyalar buxgalteriya hisobida quyidagi tartibda aks ettiriladi:

a) Materiallar va asosiy vositalar ob'ektlarini yuk bojxona deklaratsiyasini to'ldirish kunidagi Markaziy bank kursi bo'yicha buxgalteriya yozuvi bilan rasmiylashtiriladi: Dt 0800 – "Kapital qo'yilmalar schyoti", 0700 – "O'rnatiladigan asbob-uskunalar schyoti", 1000 – "Materiallar schyoti", 2900

¹⁴ ЎзР ВМнинг "Маълумот (иш, хизмат)ларни ишлаб чиқариш ва сотиш харажатлари таркиби ва молиявий натижаларни шакллантириш тартиби тўғрисидаги Низом", -Т.: 1999. 54-сонли қарори; ЎзР БҲМС 4-сонли "Товар-моддий захиралари" миллий стандарти. -Т.: 1998 йил 27 августда 44-сон; ЎзР БҲМС 5-сонли "Асосий воситалар" миллий стандарти. -Т.: 2003 йил 9 октябрдаги 114-сон.

– “Tovarlar schyoti”; Kt 6010 – “Mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga to’lanadigan schyotlar” schyoti - qarzlarining joriy qismi yoki 7010 – “Mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga to’lanadigan schyotlar” schyoti – qarzlarining uzoq muddatli qismi.

b) Bojxona to’lovlari (import uchun qo’shilgan qiymat solig’idan tashqari) va chetdan keltirish bilan bog’liq va belgilangan tartibda xarid qilish qiymatiga qo’shiladigan boshqa xarajatlarga quyidagi yozuv amalga oshiriladi: Dt 0800 -“Kapital qo’yilmalar schyoti”, 0700 – “O’rnatiladigan asbob-uskunalar schyoti”, 1000 –“Materiallar schyoti”, 2900 –“Tovarlar schyoti”; Kt 6410 – “Byudjetga to’lovlar bo’yicha qarzlar” schyoti yoki Kt 6990 –“Boshqa majburiyatlar” schyoti.

v) Yakkabog’ “Oq-oltin paxta tozalash zavodi» OAJ uchun chegirishga olib borilgan qo’shilgan qiymat solig’i summasiga ega: Dt 4410 –“Byudjetga soliqlar va yig’imlar bo’yicha bo’nak to’lovlari” schyoti, Kt 6410 – “Byudjetga to’lovlar bo’yicha qarzlar” schyoti.

g) Agar qo’shilgan qiymat solig’ini to’lamaydigan xo’jalik yurituvchi sub’ektlar uchun xarid qiymati summasiga: Dt 1000-“Materiallar schyoti” yoki 2900- “Tovarlar schyoti”, Kt 6410 –“Byudjetga to’lovlar bo’yicha qarzlar” schyoti.

d)Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning boshlang’ich qiymatiga qo’shiladigan qo’shilgan qiymat solig’i summasi buxgalteriya hisobida quyidagi yozuv bilan rasmiylashtirilishi lozim:

Dt 0800 – “Kapital qo’yilmalar schyoti”, “O’rnatiladigan asbob-uskunalar”, Kt 6410-“Byujetga to’lovlar bo’yicha qarzlar” schyoti.

Yakkabog’ “Oq-oltin paxta tozalash zavodi» OAJ tomonidan konsignatsiya shartnomasiga asosan chetdan keltirilgan tovarlar bo’yicha operatsiyalar buxgalteriya hisobida quyidagi tartibda rasmiylashtiriladi: konsignatsiya shartnomasi bo’yicha chetdan keltirilgan tovarlar konsignatorning buxgalteriya hisobida balansdan tashqari 004-“Komissiyaga qabul qilingan tovarlar”

schyotining kirimi bo'yicha aks ettiriladi; chetdan keltirilgan konsignatsiya tovarlari bo'yicha bojxona to'lovlari qo'shilgan qiymat solig'i qo'shilgan holda hisoblanadi: Dt 3290-“Boshqa kechiktirilgan xarajatlar” schyoti, Kt 6410-“Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzlar” schyoti.

Chetdan keltirilgan konsignatsiya tovarlari bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i va bojxona to'lovlari bo'yicha qarzlar to'langanda esa: Dt 6410-“Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzlar” schyoti, Kt 5110-“Hisob-kitoblar schyoti”. Konsignatsiya tovarlari sotilganda: Dt 4010-“Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar” schyoti – shartnomasi bahosi bo'yicha sotilgan tovarlar summasiga hisoblangan qo'shilgan qiymat solig'i qo'shilgan holda, Kt 9010-“Ishlar bajarish va hizmatlar ko'rsatishdan daromadlar” schyoti – komissiya mukofotlari summasiga va Kt 6990-“Turli kreditorlarga bo'lgan qarzlar schyoti” – tovar invoysi va BYUD bo'yicha sotish kunidagi Markaziy bank kursi bo'yicha konsignatsiya tovari qiymati, Kt 6410 – “Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzlar” schyoti – komissiya mukofotidan kelib chiqib aniqlanadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasiga. Bir vaqtning o'zida, sotilgan konsignatsiya tovarlari qiymatini hisobdan chiqarish balansdan tashqari 004 - “Komissiyaga qabul qilingan tovarlvr” schyotining chiqimida bo'yicha aks ettirilishi maqsadga muvofiqdir.

Sotilgan konsignatsiya tovarlarining ulushiga to'g'ri keladigan chetdan keltirilgan konsignatsiya tovarlari bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i qo'shilgan holda bojxona to'lovlari bo'yicha xarajatlarni ushbu tovarlarni sotish paytida moliyaviy natijalarga olib borib hisobdan chiqarish maqsadga muvofiq bo'ladi: Dt 9430 – “Boshqa operatsion xarajatlar”, Kt 3290 - “Boshqa kechiktirilgan xarajatlar” schyoti.

Konsignatsiya shartnomasi bo'yicha olingan tovarlar konsignantga qaytarilgan hollarda, 3290 – “Boshqa kechiktirilgan xarajatlar” schyotida aks ettirilgan bojxona to'lovlari va qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha konsignator xarajatlarining qaytarilgan tovarlar ulushiga to'g'ri keladigan qismi

konsignatorlarning moliyaviy natijalariga (davr xarajatlariga) olib borib hisobdan chiqariladi (2-jadvalga qarang).

2-jadval

Yakkabog' "Oq-oltin paxta tozalash zavodi» OAJda chet el valyutasidagi xo'jalik operatsiyalarini hisobga olish

T/r	Xo'jalik muomilalarini mazmuni	Schyotlarning korres-pondentsiyasi	
		Debet	Kredit
1	Ijaraga berilgan asosiy vositalar bo'yicha ijarachidan ijara to'lovlarining kelib tushishi.	5210, 5220	4810, 4820
2	Mahsulot (tovar, ish, xizmat)lar, asosiy vositalar va boshqa aktivlarni sotilishidan valyutaning kelib tushishi.	5210, 5220	4010
3	Kassadan valyuta mablag'larining valyuta schyotiga topshirilishi.	5210, 5220	5020
4	Ishlatilmagan chek va akkreditiv summasining valyuta schyotiga o'tkazilishi.	5210, 5220	5510, 5520
5	Ilgari qisqa muddatli investitsiyalar tartibida berilgan qarzning qaytirilishi.	5210, 5220	5830
6	Ilgari berilgan bo'naklarning qaytarilishi.	5210, 5220	4310, 4330
7	Qondirilgan da'volar summasining kelib tushishi.	5210, 5220	4860
8	Olingan bo'naklar summasi.	5210, 5220	6300, 7310
9	Ilgari aktsiyalarga obuna bo'lgan ta'sischilardan ulush summasining kelib tushishi.	5210, 5220	4610
10	Nominal qiymatdan yuqori bahoda sotilgan aktsiyalardan emission daromadlarning kelib tushishi.	5210, 5220	8410
11	Investitsiyaga mablag'larning qo'yilishi.	0600, 5800	5210, 5220
12	Bankdan kassaga valyuta mablag'larning kelib tushishi.	5020	5210, 5220
13	Xususiy aktsiyalarning sotib olinishi.	8610, 8620	5210, 5220
14	Mol etkazib beruvchilar va pudratchilar oldidagi qarzlarining to'lanishi.	6010	5210, 5220
15	Berilgan bo'naklarning summasi.	4310, 4330	5210, 5220
16	Ilgari olingan bo'naklarning qaytarilishi.	6300, 7310	5210, 5220
17	Ta'sischilarga hisoblangan dividendning to'lanishi.	6610	5210, 5220
18	Hisoblangan foizlar bo'yicha qarzlar qoplandi.	6920	5210, 5220
19	Qisqa muddatli kreditlar va qarzlar qoplandi.	6810, 6840	5210, 5220
20	Uzoq muddatli kreditlar va qarzlarining joriy qismi qoplandi.	6590	5210, 5220
21	Ijara beruvchiga tegishli bo'lgan to'lovlar to'landi.	6910, 6950	5210, 5220

Xaridorlar va buyurtmachilardan pul mablag'lari kelib tushganda: Dt "Pul mablag'lari schyoti", Kt 4010 – "Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar" schyoti. Byudjetga qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha qarzlar to'langanda: Dt 6410 – "Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzlar schyoti", Kt "Pul mablag'lari schyoti". Konsignatorga qarzlar to'langanda: Dt "Turli kreditorlarga bo'lgan qarzlar schyoti", Kt "Pul mablag'lari schyoti".

Shunday qilib, Yakkabog' "Oq-oltin paxta tozalash zavodi» OAJda sotib olingan materiallar harakatining buxgalteriya hisobini to'g'ri yuritishda xorijiy operatsiyalarni hisobga oluvchi ishchi schyotlar rejasini ishlab chiqish har bir xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning ixtiyorida bo'lishi va ularni o'zlarining hisob siyosatida rasmiylashtirib qo'yishlari maqsadga muvofiq bo'lar edi deb hisoblaymiz.

3-Bob. Yakkabog' "Oq-oltin paxta tozalash zavodi» OAJda materiallardan samarali foydalanishning auditorlik tekshiruvi amaliyoti va uni takomillashtirish

3.1.Yakkabog' "Oq-oltin paxta tozalash zavodi» OAJda material qiymatliklarni auditorlik tekshiruidan o'tkazishda axborot manbalaridan foydalanish

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilash sharoitida har qanday korxona asosiy maqsadiga erishish uchun ishlab chiqarish xarajatlarini, jumladan, materiallar tejab-tergab foydalanishga alohida e'tibor beradilar. Chunki, shuning natijasida ular o'z foydalarini ko'paytirishga, oqibat natijada foydalilik darajasini oshirishga erishadilar. Mahsulot ishlab chiqarishda materiallarning ahamiyati katta. Ularsiz ayrim hollarda mahsulot ishlab chiqarish imkoniyati cheklanadi, ayrim hollarda esa umuman mumkin emas.

Oq-oltin paxta tozalash zavodida mahsulot ishlab chiqarish rejasining bajarilishi, tannarxning pasayishi, foyda va rentabellikning oshishi, korxonani moddiy resurslar bilan belgilangan assortimenti va sifati bo'yicha ta'minlanishiga bog'liqdir.

Oq-oltin paxta tozalash zavodining moddiy resurslar bilan o'z vaqtida, zaruriy miqdorlarda, belgilangan sifatda hamda bir ma'romda ta'minlanishi shu bilan birgalikda ulardan ratsional foydalanish pirovardida uning iqtisodiy rivojlanishi va taraqqiy etishi uchun har tomonlama ta'sir etadi.

Oq-oltin paxta tozalash zavodining rivojlanishi, taraqqiy etishi hamda iqtisodiy jixatdan baquvvat bo'lishi oqibat natijada mustaqil Respublikamizning iqtisodiyotini barqarorlashishiga zamin yaratadi. Xalqimiz turmush darajasining yanada yuksalishiga har tomonlama o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Oq-oltin paxta tozalash zavodida mahsulot ishlab chiqarish xajmlarining oshishi o'z navbatida moddiy resurslardan foydalanish ko'lamining ham

kengayishiga olib keladi. SHuning uchun moddiy resurslardan tejab tergab foydalanish muhim masalalardan biri hisoblanadi.


Oq-oltin paxta tozalash zavodi materiallardan to'liq va samarali foydalanishni ta'minlash uchun hozirgi davrda zamonaviy yangi texnikalardan to'g'ri foydalanish, shuningdek, samarali texnologiyalarni ishlab chiqarishga tezkorlik bilan tatbiq etishni taqazo etadi. CHunki ular yordamida materiallar ishlab chiqarishga sarf qilinishi, tejalishi ta'minlanadi. SHuning bilan birgalikda ishlab chiqarishni turlicha shakllarini asosiy e'tibor nodavlat mulkchiligiga asoslangan korxonalarni barpo etish va rivojlantirishga qaratish maqsadga muvofiqdir. Sababi ularda mulkka egalik qilish xissiyoti doimo yuqori darajada bo'ladi. Darhaqiqat nodavlat mulkchiligiga asoslangan korxonalarda mehnat predmetlari, ularning mulki hisoblanadi. Undan imkoniyat doirasida samarali foydalanishga katta e'tibor beriladi.

Moddiy resurslardan samarali foydalanishni yo'lga qo'yishda auditning ahamiyati kattadir. Oq-oltin paxta tozalash zavodida moddiy resurslardan qay darajada foydalanilayotganligini auditorlik tekshiruvi natijasida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga sarflanayotgan xarajatlarni tejash maqsadida foydalanilmay qolgan ichki imkoniyatlarni topish mumkin.

Oq-oltin paxta tozalash zavodida materiallardan foydalanishni tekshirishda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim (7-chizmaga qarang).

Ushbu ko'rsatkichlarni aniqlashda zavodning moddiy texnika ta'minoti rejasi, xom ashyo va materiallar bo'yicha tuzilgan shartnoma, hamda moddiy resurslar mavjudligi va ulardan foydalanishning statistik hisobotini to'g'ri tuzilganligi muhim ahamiyatga ega.


Oq-oltin paxta tozalash zavodida sotib olinayotgan materiallardan foydalanishni tekshirishda ularning sarflanish bo'yicha o'rnatilgan me'yoriy ma'lumotlardan ham foydalanish maqsadga muvofiqdir.



7-chizma. Materiallar tahlilidagi omillar.

Oq-oltin paxta tozalash zavodida xorijdan sotib olinayotgan materiallardan to'liq , bir me'yorda hamda samarali foydalanganlik darajasini tahlil etish uchun shu holatlarni ifodalaydigan ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish zarur.

Oq-oltin paxta tozalash zavodida sotib olinayotgan materiallar resurslarni audit qilishda ta'minlanganlik, ulardan foydalanish to'liqligini va samaradotligini quyidagi ko'rsatkichlar yordamida aniqlash maqsadga muvofiqdir (8-chizmaga qarang).



7-chizma. Samaradorlik ko'rsatkichlari.

Moddiy resurslar bilan ta'minlanganlik- Oq-oltin paxta tozalash zavodini barcha material resurslar bilan ta'minlanganlik darajasi. SHu jumladan asosiy fondlar bilan ta'minlanganlik hamda aylanma fondlar va mablag'lar bilan ta'minlanganlik darajasi hisoblanadi. Bu ko'rsatkichlarni material resurslarning alohida turlari bo'yicha ham hisoblash mumkin. Masalan: stanoklar bilan, xom ashyo bilan, yoqilg'i bilan va boshqa material resurslar bilan ta'minlanganligini aniqlash;

Material resurslardan foydalanishning to'liqligi- Oq-oltin paxta tozalash zavodining ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish darajasini isbotlaydi.

Oq-oltin paxta tozalash zavodida_mehnatni material resurslar bilan ta'minlanganlik darajasi- uni jami material resurlari qiymatini korxonada mavjud bo'lgan ishchi va xizmatchilar soniga taqsimlash natijasida aniqlash mumkin. Bu ko'rsatkichni yanada aniqlashtirish maqsadida material resurslar qiymatini faqatgina ishchilar soniga taqsimlash natijasida ham aniqlash mumkin. Uni alohida asosiy fondlar bilan qurollanganlik hamda aylanma fondlar bilan ta'minlanganlik ko'rsatkichlari bo'yicha ham aniqlash mumkin;

Material resurslardan foydalanishni iqtisodiy samaradorligi- Oq-oltin paxta tozalash zavodidagi fondlar qaytimi hamda fondlar sig'imi isbotlaydi. Fondlar qaytimini aniqlash uchun zavodda yil davomida ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot hamda tovar mahsuloti qiymatini asosiy fondlarning o'rtacha yillik qiymatiga taqsimlash lozim. Fondlar qaytimining iqtisodiy mohiyati bo'lib zavodning har ming so'mlik asosiy fondlariga to'g'ri keladigan yalpi mahsulot yoki tovar mahsulotini ko'rsatkichi hisoblanadi.

Oq-oltin paxta tozalash zavodida asosiy fondlardan samarali foydalanishni ko'rsatuvchi keyingi ko'rsatkich bo'lib fond sig'imi hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkichni hisoblash uchun zavoddagi mavjud bo'lgan asosiy vositalarning yillik o'rtacha qiymatini yil davomida ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot va tovar mahsuloti qiymatlariga taqsimlanadi. Fondlar sig'imining iqtisodiy mohiyati bo'lib zavodda yil mobaynida ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot yoki tovar mahsulotining har ming so'miga to'g'ri keladigan asosiy fondlarning qiymati hisoblanadi.

Shu bilan birgalikda materiallardan foydalanish samaradorlik ko'rsatkichlarini material qaytimi va material sig'imi ko'rsatkichlarini ifodalaydi. Material qaytimi ko'rsatkichini aniqlash uchun Oq-oltin paxta tozalash zavodida yil davomida ishlab chiqarilgan tovar mahsuloti qiymatini material xarajatlar qiymatiga taqsimlanadi. Ushbu ko'rsatkichning iqtisodiy mohiyati bo'lib, zavodda yil davomida ishlab chiqarish jarayonida sarflangan har bir so'mlik materiallarga to'g'ri keladigan tovar mahsuloti hisoblanadi. Material sig'imi ko'rsatkichi buning aksi bo'lib material xarajatlar qiymatini zavodning yil davomida ishlab chiqarilgan tovar mahsuloti qiymatiga taqsimlash yo'li bilan aniqlanadi. Buni tavsiflaydigan bo'lsak ushbu ko'rsatkich zavodda yil mobaynida ishlab chiqarilgan tovar mahsulotining har bir so'miga qancha material xarajatlari sarflanganligini ko'rsatadi.

Oq-oltin paxta tozalash zavodi o'z maqsadini muvaffaqiyatli hal etish maqsadida o'zlarini ishlab chiqarishlarni moddiy texnika resurslari bilan

ta'minlash jarayonini bajarilishiga alohida e'tibor beradilar. Buning uchun aniqlangan, ya'ni zavod uchun zarur bo'lgan moddiy texnika resurslarini yangi turlari mavjudligi hamda ular jaxon bozorida taklif qilinganligi o'rganiladi. Chunki zavod o'zi uchun zarur bo'lgan moddiy texnika resurslarining yaxshilarini ya'ni, samaralisini olishga xarakat qiladilar.

Moddiy texnika marketingini ya'ni, bozorini o'rganish bilan birgalikda ularni qaysi bozor infratuzilmalaridan sotib olish mumkinligini belgilaydilar. SHu davrda tovar va xom ashyo birjalari bilan, sotuvchilar tomonidan tashkil etilayotgan ko'rgazmalar bilan bevosita zavodning o'zlari bilan aloqalarni tiklaydilar. Shu aloqalar natijasida qisqa muddatli hamda uzoq muddatli ayrim hollarda esa bir martalik kuchga ega bo'lgan shartnomalar tuziladi. SHu shartnomalarda moddiy texnika resurslarini etkazib beruvchilarning burchlari vazifalari batafsil aks ettiriladi.

Masalan, Yakkabog' "Oq-oltin paxta tozalash zavodi» OAJda tayyorlanayotgan mahsulotlarni qaysi muddatlarda qanday holatda qaerga hamda qanday baholarda etkazib berishligini aks ettirishi mumkin. Agarda shu zavod zavodga mahsulot etkazib berishni o'z zimmasiga olgan bo'lsa. Ayrim hollarda iste'molchilar zavoddan mahsulotlarni o'zlari olib chiqib ketishlarini o'z zimmalariga olishlari mumkin. SHunday hollarda uning baholari nisbatan arzon bo'lishi mumkin, javobgarligi esa sotib oluvchi zimmasida qolishi mumkin.

Yakkabog' "Oq-oltin paxta tozalash zavodi» OAJda sotib olinayotgan materiallar bilan ta'minlanishi tahlili moddiy texnika ta'minoti rejasining ob'ektiv ravishda belgilanganligini aniqlashdan boshlanadi. Materiallar resurslarga bo'lgan talabni aniqlashda texnika, xom ashyo, yoqilg'i-moylash materiallari va boshqa materiallar bo'yicha belgilangan me'yorlardan qanday foydalanilganligi, ilg'or me'yorlardan xom ashyoga bo'lgan talabni aniqlashda undan qay darajada foydalanilganligi tekshiriladi.

Oq-oltin paxta tozalash zavodida ishlab chiqarish jarayonining bir ma'romda amalga oshirilishi ko'p jihatdan korxonani moddiy resurslar bilan to'liq ta'minlanganligiga bog'liqdir. Zavodni moddiy texnika resurslariga bo'lgan ehtiyoji ikki manba: tashqi ta'minot va ichki ta'minot hisobiga qondiriladi.

Tashqi ta'minot deganda, tashqi korxonalar, xom ashyo birjalari bilan tuzilgan shartnomaga asosan moddiy texnika resurslarini chetdan etkazib beruvchilardan kelib tushishi tushuniladi. Ichki ta'minot deganda, ta'minot rejasining bajarilishi, ichki resurslardan samarali foydalanish, chiqindilarni kamaytirish, iqtisod rejasiga rioya qilish kabilar tushuniladi. Oq-oltin paxta tozalash zavodida moddiy texnika ta'minoti rejalarini bajarilishini tekshirish uchun korxonaning ma'lumotlaridan foydalanamiz (3-jadvalga qarang).

3-jadval

Yakkabog' "Oq-oltin paxta tozalash zavodi» OAJda moddiy texnika
ta'minoti rejasining bajarilishini tekshirish
(mln. so'mda)

Shartli belgi	Material-larga bo'lgan talab (tonna)	Shu jumladan		Shartno-ma tuzildi (tonna)	Talabni shartno-ma bo'yicha qoplash (%)	Materi-allarni kelib tushishi (tonna)	Shartnoma bajarili-shi (%)
		Ich-ki	Tash-qi				
A	27000	1500	26500	24300	90.0	22907	94.2
V	5700	1050	5650	5420	95.0	5190	95.7

3- jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki materiallarga bo'lgan talab (A) tuzilgan shartnoma va ichki manbalar bo'yicha to'liq ta'minlanmagan. Reja bo'yicha ta'minlanish koeffitsienti 0.955 ni tashkil etadi. Haqiqatda materiallarni etkazish rejasi 10.0% ga bajarilmagan (100-90.0).

$$Tk = (1500 + 24300) : 27000 = 0.955$$

Shunday tekshirish natijasida sotib olayotgan materiallarni etkazish rejasini bajarilmaganlik sabablarini batavsil aniqlash talab etiladi. Unga sabab bo'lib material resurslarini etkazib beruvchilar, hamda ularni sotib oluvchilar, ayrim hollarda esa o'rtada turgan bozor infratuzilmalari hisoblanishi mumkin.

Bu sabablar o'rganilganidan so'ng, ularni bartaraf etish rejalari, tadbirlari tuziladi.

Oq-oltin paxta tozalash zavodning ishlab chiqarish jarayonlarining natijasi hamda samaradorligi ularning material resurslari bilan ta'minlanganligiga bevosita bog'liqdir. Chunki zavodlarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni xajmi, sifati ulardagi material resurslarining talab darajada bo'lishligini ob'ektiv ravishda taqazo etadi. Shuning bilan birgalikda u resurslar zamon talabiga ham mos kelishi lozim. Ya'ni, universalliligi, yangililigi hamda arzonligi nuqtai nazaridan. Zavodning sotib olayotgan material resurslariga bo'lgan talabini aniqlashda me'yoriy hujjat va me'yoriy ma'lumotlardan foydalanish lozim.

Yakkabog' "Oq-oltin paxta tozalash zavodi» OAJdagi biznes rejada ko'rsatilgan mahsulotlar miqdorini ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan material resurslarini miqdori va qiymati aniqlanadi. Ya'ni, qancha stanoklar, qancha mashinalar, mexanizmlar, shuningdek, boshqa moddiy resurslar bo'yicha alohida alohida hisob-kitoblar qilinadi.

Oq-oltin paxta tozalash zavodining o'zidagi mavjud bo'lgan material resurslarining yil boshiga bo'lgan miqdori yillik inventarizatsiya natijasida aniqlanadi. Ularda mavjud bo'lgan material resurslar korxonalar ishlab chiqarishini davomiyligini ta'minlash uchun etarli bo'lmagan hollarda korxonalarni zarur bo'lgan material resurslari bilan ta'minlash borasida shartnomalar tuziladi. Bu masalalar yuqoridagi paragraflarda batafsil yoritilgan.

Oq-oltin paxta tozalash zavodiga sotib olinayotgan material resurslarini oqimi natijasida ularning material resurslari bilan ta'minlanganlik darajasi ortib boradi. Zavodning material resurslari bilan ta'minlanganligini hamda mehnatni ular bilan qurollanganligini yuqoridagi paragraflarda keltirilgan ko'rsatkichlar yordamida aniqlanadi.

Masalan, Yakkabog' "Oq-oltin paxta tozalash zavodi» OAJ ixtiyorida yil boshiga 100 mln. so'mlik material resurslarining mavjudligi balansda ko'satilgan. Zavod uchun esa ishlab chiqarishini bir me'yorda rivojlantirish uchun rejaga muvofiq 170 mln. so'mlik material resurslari zarurligi aniqlangan. Demak, zavod uchun ularga bo'lgan talab to'liq qondirilayotgani yo'q. Bu masalani hal etish uchun zavod qo'shimcha 70 mln. so'mga xorijdan material resurslarini sotib olishni qarzga yoki ijaraga olishni rejalashtiradi. U shu masala bo'yicha tuzilgan shartnomalarda o'z aksini topadi. Zavodni moddiy texnika ta'minotini hal etilishi natijasida yil davomida 50 mln. so'mlik material resurslari sotib olingan. SHunda zavodning material resurslar bilan ta'minlanganlik darajasi 88.2% ni tashkil etgan bo'ladi.

$$(100 + 150) : 170.$$

Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki. Zavod material resurslari bilan to'liq ta'minlanmagan ya'ni ularning miqdori 11.8 % ga kam bo'lgan. Bu hol zavod ishlab chiqarish faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.


Oq-oltin paxta tozalash zavodining material resurslari bilan ta'minlanganligini tekshirish natijasida ular bilan to'liq ta'minlanmaganlik faktlari aniqlansa, bu holda uni kelib chiqish sabablari o'rganiladi shuning bilan birgalikda ushbu salbiy natijalarni bartaraf etish imkoniyatlari va chora tadbirlari belgilanadi.

Yakkabog' "Oq-oltin paxta tozalash zavodi» OAJda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni o'rtacha xarajatlari, ya'ni, tannarxlari ko'p jihatdan xom ashyo va materiallardan samarali foydalanish ko'rsatkichlariga bog'liqdir. Material resurslar miqdorini rejalashtirilgan hajmda tayyorlash, mahsulot ishlab chiqarish rejasini bajarish uchun imkoniyat yaratadi. Material resurslardan tejab-tergab foydalanilmasa, hamda ularning amaliyotdagi foydalanilishi belgilangan me'yorlarga nisbatan ortiqcha bo'lsa, u holda keltirilgan

materiallar mahsulot ishlab chiqarish davoiyligi rejasini bajarish uchun etarli bo'lmaydi.

Yakkabog' "Oq-oltin paxta tozalash zavodi» OAJda sotib olinayotgan material resurslardan foydalanishni auditorlik tekshiruvidan o'tkazishdan maqsad ishlab chiqarish jarayonida ulardan foydalanishda ortiqcha sarf-xarajatlarga yo'l qo'yilgan bo'lsa, bu holda mahsulot hajmi qanchaga kam yaratilganligi yoki moddiy resurslardan samarali foydalanish natijasida qancha qo'shimcha mahsulot barpo etilganligini aniqlash lozim. Ularni quyidagi usullardan foydalangan holda hisoblash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz (9-chizmaga qarang).

Shu tartibda materiallardan samarali foydalanish natijasida erishilgan iqtisod asosida qo'shimcha ishlab chiqarilgan mahsulot yoki ularni tejab-tergab foydalanmaslik oqibatida ortiqcha xarajatlarning yuzaga kelishi zaminida ishlab chiqarilmagan mahsulot hajmi aniqlanadi.



9-chizma. Ishlab chiqarishni tekshirish usullari.

Shu bilan birgalikda materiallardan samarali foydalanish ko'rsatkichlarini tekshirishda alohida materiallardan foydalanishni tadqiq qilish bilan birgalikda korxona bo'yicha materiallardan foydalanishni o'rganish maqsadga muvofiqdir. Uni quyida keltirilgan jadval yordamida amalga oshirish mumkin (4-jadvalga qarang).

4-jadval

Yakkabog' "Oq-oltin paxta tozalash zavodi» OAJda materiallardan foydalanish holatini tekshirish va aniqlash

mln. so'm hisobida

Ko'rsatkichlar	Reja	Haqiqatda	Farqi (+,-)
1	2	3	4
1.Moddiy xarajatlar	42843	42043	-800
2.Tovar mahsuloti	74260	79797	+5537
3.Tovar mahsulotida material sig'imi (so'm) (1:2)	0.5769	0.5268	-0.050
4.Material sarfi o'zgarishining ta'siri (+,-) tovar mahsuloti tannarxida moddiy xarajatlarning qimmatlashishi (+), pasayishi (-) -0.050 x 79797 = -3989 tovar mahsulotining hajmi 3989 : 0.5769 = 6914	x x	x x	-3989 +6914
5.Material qaytimi (2:1)	1.73	1.89	+0.16

Shunday qilib, tekshirish natijalaridan ko'rinadiki moddiy xarajatlarni iqtisod qilish natijasida qo'shimcha ravishda 6914mln. so'mlik mahsulot ishlab chiqarishga erishildi.

Demak, Yakkabog' "Oq-oltin paxta tozalash zavodi» OAJda tovar mahsulotiga sarflanadigan materiallardan samarali foydalanish borasida ishlar yaxshi yo'lga qo'yilgan.

3.2. Yakkabog' "Oq-oltin paxta tozalash zavodi» OAJning moliyaviy barqarorligini auditorlik tekshiruvi orqali aniqlash

Oq-oltin paxta tozalash zavodining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda xirijdan sotib olinayotgan material resurslardan samarali foydalanish ham muhim ahamiyat kasb etadi. SHu boisdan, tadqiqot ob'ekti sifatida olingan paxta tozalash zavodining moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlarini va sotib olingan material resurslarining holatini tahlil qilishni joiz deb bildik. Avvalambor, korxonaning hisobot yilidagi moliyaviy natijalari qay holatda ekanligini ham ko'rish lozim (5-jadvalga qarang).

5-jadval tekshiruv natijalaridan ko'rinib turibdiki, mahsulot sotishdan tushgan tushum o'tgan yilga nisbatan 320.0 mlrd. so'm (751.3 – 431.3) yoki 74.2% ga

o'sgan. Mahsulot sotishdan olingan sof tushum esa 195.5 mlrd. so'm (452.9 – 257.4) yoki 76.0% ni tashkil etmoqda.

Hisobot yilining sof foydasi esa yil oxirida 68.4 mlrd. so'm bo'lib, o'tgan yilga nisbatan 21.7 mlrd. so'mga (68.4 – 46.7) ortgan.

5-jadval

2011 yilda Yakkabog' "Oq-oltin paxta tozalash zavodi» OAJning moliyaviy natijalari holati tekshirish¹⁵

(ming so'm)

Ko'rsatkichlar	2010 yil	2011 yil	Farqi (+,-)	
			Miqdor	%
Mahsulot sotishdan tushum	431293398	751313667	320020269	174.2
QQS	43447087	77371180	33924093	178.1
Aktsiz	106532384	210484124	103951740	197.6
Sotishdan tushgan sof tushum	257410350	452939064	195528714	176.0
Mahsulot ishlab chiqarish tannarxi	187046705	319586982	132540277	170.9
Sotishdan olingan yalpi moliyaviy natija (foyda-zarar)	70363645	133352082	62988437	189.5
Sotish xarajatlari	0	0	0	0
Ma'muriy xarajat	-1051048	-1570074	-519026	149.4
Asosiy faoliyatdan boshqa operatsion xarajatlar	-15593631	-28369844	-12776213	181.9
Asosiy ishlab chiqarish faoliyatdan olingan moliyaviy natija (foyda-zarar)	537189966	103412164	49693198	192.5
Avlod va sho'ba korxonalardan olingan dividendlar	35746	41103	5357	115.0
Olingan boshqa dividendlar	21070	20271	-799	96.2
Qarzlarni bo'yicha foizlar	0	0	0	0
Boshqa olingan va to'langan foizlar	11113781	-5362339	-16476120	-48.2
Valyuta kurslari bo'yicha farq	5352584	1153213	-4199371	21.5
Moliyaviy faoliyatdan olingan boshqa daromad va xarajatlar	168110	624434	456324	371.4
Umumxo'jalik faoliyatidan olingan moliyaviy natija (foyda-zarar)	70410257	99888846	29478589	141.9
Favqulotda foyda va zarar	0	0	0	0
Soliq to'lagunga qadar foyda va zarar	70410257	99888846	29478589	141.9
Daromatdan soliq	-19726750	-17548525	2178225	89.0
Boshqa to'lovlar va ajratmalar	-4024140	-13962720	-9938580	347.0
Hisobot yilining sof foydasi	46659367	68377601	21718234	146.5

¹⁵ Яккабоғ "Оқ-олтин пахта тозалаш заводи» АОЖ бухгалтерия хисоби маълумотлари асосида тузилди.

Demak, zavodda ishlab chiqarish jarayoni to'g'ri tashkil etilganligidan dalolat beradi.

Endi, Yakkabog' "Oq-oltin paxta tozalash zavodi» OAJning moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari holatini tekshiradigan bo'lsak, hisobot yilida o'zlik mablag'larining manbai 207.8 mlrd. so'mga (549.3 – 341.4) ortgan (6-jadvalga qarang).

6-jadval tekshiruv natijalaridan ko'rish mumkinki, o'zlik aylanma mablag'larning ortishi 5.1 mlrd. so'mni (87.3 – 82.2) tashkil etgan. Bunda asosan, 97.6 % o'zlik mablag'larni, uzoq muddatli aktivlarni ko'paytirish uchun jalb etilgan bo'lsa, atigi 2.4 % ini o'zlik aylanma mablag'larga qaratilgan. Natijada, kompaniyada yil oxirida 2.7 mlrd. so'mga o'zlik aylanma mablag'larning etishmasligi aniqlandi.

6-jadval

2011 yilda Yakkabog' "Oq-oltin paxta tozalash zavodi» OAJning moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari holatini tekshirish¹⁶

(ming so'm)

№	Ko'rsatkichlar	Yil boshiga	Yil oxiriga	Farqi (+,-)
1	O'zlik mablag'lari manbai	341436127	549281640	207845513
2	Asosiy vositalar va qo'yilmalar	259214890	461996901	202782011
3	Naqd o'zlik aylanma mablag'lar	82221237	87284739	5063502
4	Uzoq va qisqa muddatli kredit hamda qarzlar	3898720	2661514	-1237206
5	Naqd o'zlik va uzoq, o'rta muddatli qarz mablag'larini moliyalashtirishning zahira hamda xarajatlar	86119957	89946253	3826296
6	Qisqa muddatli kredit va qarzlar	7078795	165964	-6912831
7	Zahira va xarajatlarni shakllantirishning asosiy manbalarining umumiy hajmi	93198752	90112217	-3086535
8	Zahira va xarajatlarning umumiy hajmi	77993741	89969334	11975593
9	O'zlik aylanma mablag'larining etarliligi (+), etishmasligi (-)	4227496	-2684595	-6912091
10	O'zlik va uzoq, o'rta muddatli qarz mablag'larini moliyalashtirishning zahira hamda xarajatlarning etarliligi (+), etishmasligi (-)	8126216	-23081	-8149297
11	Zahira va xarajatlarni shakllantirishning umumiy hajmida asosiy manbalarining etarliligi (+), etishmasligi (-)	15205011	142883	-15062128

¹⁶ Яккабоғ "Оқ-олтин пахта тозалаш заводи» АОЖ бухгалтерия хисоби маълумотлари асосида тузилди.

Demak, zavod o'zlik mablag'larini ishlatishda aylanma mablag'larga nisbatan noto'g'ri taqsimlashni amalga oshirganligi bois, yil oxirida ularning kamyobligi vujudga kelgan. Bu o'z navbatida ishlab chiqarish jarayonini kengaytirishga jiddiy ta'sir ko'rsatish ehtimoli borligini ko'rsatadi. Bundan kelib chiqib, biz zavodning aylanma mablag'lari xarakatini ham ko'rib chiqishni lozim deb topdik (7-jadvalga qarang).

7-jadval

2011 yilda Yakkabog' "Oq-oltin paxta tozalash zavodi» OAJning aylanma mablag'lari harakatini tekshirish¹⁷

(ming so'm)

Ko'rsatkichlar	Yil boshiga		Yil oxiriga		Farqi	
	Ming. so'm	%	Ming. so'm	%	Ming. so'm	%
Ishlab chiqarish zahiralari	54332919	15.1	57315282	9.3	2982363	105.5
Tugallanmagan ishlab chiqarish	48016	0.0	65648	0.0	17632	136.7
Tayyor mahsulot	77417	0.0	786210	0.1	708793	101.5
Tovarlar	23535389	6.5	31802194	5.2	8266805	135.1
Pul mablag'lari - jami	711899	0.2	2902760	0.5	2190861	407.7
Hisob-kitob schyoti va kassa	368684	0.1	879666	0.1	510982	238.6
Valyuta va boshqa schyotlar	343215	0.1	2023094	0.3	1679879	589.5
Debitorlik qarzlari	280912960	78.1	508640627	82.7	227727667	181.1
Boshqa aylanma mablag'lari	70857	0.0	13738308	2.2	13667541	193.8
Jami aylanma mablag'lari	359689457	100	615251029	100	255561572	171.1

7-jadval ma'lumotlariga ko'ra, yil davomida aylanma mablag'lar 255.6 mlrd. so'm (615.3 – 359.7) yoki 71.1 % o'sgan. Biroq, aylanma mablag'larning bunday o'sishida debitorlik qarzlarning salmog'i 227.7 mlrd. so'm (81.1 %) yoki jami aylanma mablag'lardagi salmog'i esa 89.1 % ni tashkil etmoqda. SHunigdek, pul mablag'larining o'sishi o'tgan yillarga nisbatan to'rt baravarga oshgan (2.9 – 0.7).

¹⁷ Яккабоғ "Оқ-олтин пахта тозалаш заводи» АОЖ бухгалтерия хисоби маълумотлари асосида тузилди.

Hisobot yilida aylanma mablag'larni joylashtirishda asosan ishlab chiqarish zahiralarida ancha sezilarli holatni ko'rish mumkin, ya'ni o'tgan yili 15.1 mlrd. so'mdan yil oxirida 9.3 mlrd. so'mni tashkil qilgan.

Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, sotib olingan materiallarni foydali jarayonga jalb etishga muvaffaq bo'lgan. Zavodning moliyaviy holatiga baho berishda biz asosan, aylanma mablag'laridan samarali foydalanishga e'tibor susayganligini ta'kidlab o'tishni joiz deb topdik. Chunki kompaniyaning mablag'lari vaqtinchalik bo'sh turib qolish holatlari mavjud, bunga debitorlik qarzlarini keltirish mumkin. Ushbu mablag'lar oborotdan chetga qolib, daromad keltirish xususiyatini yo'qotib bormoqda. SHu boisdan, ushbu mablag'larni tez orada undirish bo'yicha tadbirlar ko'rish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

3.3. Yakkabog' "Oq-oltin paxta tozalash zavodi» OAJda materiallar harakatini audit qilish va ularni baholashni takomillashtirish yo'llari

Auditor zavodning materiallari jami joriy aktivlardagi salmog'ini aniqlaydi. Ular haqidagi ma'lumotlar moliyaviy hisobotda: "Buxgalteriya balansi" 1-shakl, ikkinchi bo'lim "Aylanma aktivlari"dan olinadi. Ularga:

–ishlab chiqarish zahirolari, ya'ni ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish jarayonida foydalanish uchun mo'ljallangan xom ashyo va materiallar;

–tugallanmagan ishlab chiqarish;

–sotish uchun mo'ljallangan, shu jumladan, yo'ldagi tovarlar (tayyor mahsulot va qayta sotish uchun tovarlar, konsignatsiyalar) kiradi.

Ishlab chiqarish materiallariga: omborlar va ishlab chiqarishdagi xom ashyo, asosiy va yordamchi materiallar, yonilg'i chiqindilari, harid qilinadigan yarim tayyor va butlovchi buyumlar, zahiralaridagi qismlar, idishlar, inventar va xo'jalik jixozlar oborotlarining amaldagi tannarxi kiradi. Ular hajmi korxonaning to'xtamay ishlashga etadigan bo'lishi kerak. Ishlab

chiqarish oborotlari kamomadi ishlab chiqarish uzulishiga. Tugallanmagan ishlab chiqarish ko'payishiga, xaridorlar oldidagi majburiyatlar bajarilmasligi va oxir-oqibatda korxona moliyaviy holati yomonlashishiga olib kelishi mumkin. Ularning ortiqchaligi me'yordan ortiqcha qoldiqlar paydo bo'lishiga, saqlash xarajatlari ko'nayishi nobud bo'lishiga sabab bo'ladi.

Auditor zavodning buxgalteriya balansi bilan tanishayotganda materiallar yillik summasi o'zgarishiga e'tibor berishlari kerak. Agar ular ishlab chiqarish hajmlari va mahsulot sotilishi bilan o'zgarsa yaxshi. Chunki materiallar hajmlari kamayib, ishlab chiqarish materiallari ko'paysa, bu me'yordan ortiqcha zahiralar paydo bo'lishidan dalolat beradi. Bu mablag' aylanma qisqarayotganligini va ishlab chiqarish xarajatlari ko'payayotganligini anglatadi. Bunda sababni aniqlab, materiallarni me'yorga keltirishga qaratilgan tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qilish shart.

Tugallanmagan ishlab chiqarish va ishlar uchun xarajatlardir. Ularning hajmi ishlab chiqarish jarayoni davomiyligi, ya'ni barcha butlovchilar bilan ta'minlangan mahsulot ishlab chiqarishga sarflangan vaqtga bog'liq.. Bunda tugallanmagan ishlab chiqarish hisobotiga olinadi, hamda xarajatlar to'g'risidagi Nizom¹⁸da belgilangan tannarx bo'yicha hisobotda aks ettiriladi.

Auditor hisobotni tahlil etib tugallanmagan ishlab chiqarish summasi, ishlab chiqarish aylanmalari va tayyor mahsulot o'zgarishiga nisbatan kamayganligi yoki ko'payganligiga e'tibor qaratishi kerak. Agar tugallanmagan ishlab chiqarishning o'sishi tayyor mahsulot o'sishiga qaraganda muayyan turdagi ishlab chiqarish zaxiralari va mahsulot to'liq yig'ilmasligiga olib kelishi mumkin. Bunday paytda, imkon boricha tezroq zarur xom ashyo va materiallar bilan ta'minlash choralarini ko'rish lozim.

Tayyor mahsulot ishlab chiqarishi tugallanmagan sinovdan o'tgan va qabul qilingan buyurtmachilar bilan tuzilgan shartnomalarga muvofiq barcha

¹⁸ ЎзР Вазирлар Маъкамасининг “Маъсулот (ишлар, хизматлар) ишлаб чиқариш ва сотиш харажатлари таркиби ва молиявий натижаларини шакллантириш тартиби тўғрисида”ги Низом. –Т.: 1999 йил 5 февралда 54-сонли қарори.

qismlar butlangan hamda tegishli texnik shartlar va andozalarga mos buyumlar qoldig'i. Ko'rsatilgan talablarga mos bo'lmagan mahsulot va topshirilmagan ishlar hisobga olinadi va u tugallanmagan ishlab chiqarish sifatida hisobotda ko'rsatiladi. Tayyor mahsulot buxgalteriya balansida amaldagi tannarxi bo'yicha hisobga olinadi.

Tayyor mahsulot qoldig'ining ko'payishiga turlicha sabablar, xususan, ishlab chiqarish hajmlari ortishi, sifati yomonlashganligi yoki marketing ishi etarlicha olib borilmaganligi tufayli sotilmagan mahsulot o'sishini ko'rsatish mumkin. So'nggi moliyaviy resurslar chetga jalb qilinishi, byudjetga qo'shimcha badallar to'lashi hamda zavod moliyaviy holati yomonlashishiga olib keladi¹⁹. Unda belgilangan me'yordan ortiqcha sotilmagan tayyor mahsulot qoldig'iga ega zavodlar mazkur haqni to'lovchilar deb tan olingan. Me'yordan zavod qaysi idoraga tegishlilikidan kelib chiqib, sotish kunlari belgilanadi va yuqorida ko'rsatilgan yo'riqnomaning ilovasida keltiriladi. To'lov stavkasi me'yordan ortiqcha qoldiqlar ishlab chiqarish tannarxining 2 foizi miqdorida belgilangan. Bu tannarx quyidagi formula bo'yicha topiladi:

$$MTMK = TMO'Xt - (SKO \times MO'),$$

Bu erda:

MTMK – me'yordan ortiqcha bo'lmagan tayyor mahsulot qoldiqlari tannarxi;

TMO'Xt – hisobot davridagi sotilmagan tayyor mahsulot qoldiqlari hisob-kitob qilingan tannarxi;

SKO – mahsulotni sotish bo'yicha kundalik oborot;

MO' – sotilmagan tayyor mahsulot qoldiqlarining kunlarda belgilangan me'yori.

TMO'Xt balans bo'yicha sotilmagan tayyor mahsulotning amaldagi qoldiqlarini 12 ga bo'lish va hisobot davrini oylari miqdoriga ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi.

¹⁹ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маъкамасининг “Сотилмаган маҳсулотнинг меъёрдан ортиқча қолдиқлари учун ўаъни тўлаў тартиби тўғрисидаги йўриқнома”.-Т.: 1999 йил 31 декабрдаги 554-қарори.

SKO hisobot bo'yicha hisobot davrida sotilgan mahsulot hajmini hisobot davridagi kunlar miqdoriga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.

Sotilmagan tayyor mahsulotning me'yordagi summasi mahsulotni sotish bo'yicha kundalik oborotni sotilmagan mahsulot qoldiqlarining kunlarda belgilangan me'yoriga ko'paytirish yo'li bilan hisoblanadi.

Me'yordan ortiqcha sotilmagan tayyor mahsulot qoldig'i uchun to'lov har chorakda belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi. Doimiy ishlab chiqarish va mavsumiy sotishga mo'ljallangan korxonalar hisob-kitoblar va to'lovni yiliga bir marta taqdim etadi. Yakkabog' "Oq-oltin paxta tozalash zavodi» OAJda bu to'lovni hisob-kitob qilish uslubiyati quyidagicha:

- sotilmagan tayyor mahsulotning amaldagi qoldig'i tannarxi - 4089.
- hisobot davrida sotilmagan tayyor mahsulot qoldiqlari hisob-kitob tannarxi (sotilmagan tayyor mahsulot qoldiqlarining amaldagi tannarxi: 12 oyga va hisobot davridagi yilning oylar miqdoriga) -4089.
- hisobot davrida sotilgan mahsulotning amaldagi hajmi-16428.
- sotish bo'yicha kundalik aylanma, ming so'm-45,63.
- kunlardagi ustav me'yori-20.
- me'yorlarda belgilangan chegarada sotilmagan tayyor mahsulotlar qoldig'i qiymati (4-satr x 5-satr)-913.
- sotilmagan tayyor mahsulotning me'yordan ortiqcha qoldig'i qiymati (7-satr – 6-satr) -3176.
- sotilmagan mahsulotning me'yordan ortiqcha qoldig'i uchun to'lov stavkasi -2%.
- sotilmagan tayyor mahsulotlarning me'yordan ortiqcha qoldig'i uchun byudjetga to'lanadigan to'lov summasi (7-satr x 8-satr : 100), mln.so'm- 63,5.

Zavod raxbarlari moliyaviy hisobot bilan tanishayotganda tayyor mahsulot qoldig'i o'sishini ishlab chiqarish hajmi va mahsulot sotilishi dinamikasi bilan taqqoslashi lozim. Tayyor mahsulot bilan ta'minlanganlikni o'rganish asosida uning qoldig'ini me'yorgacha keltirish va xaridorlar

tomonidan talab qilinmaydigan tovarlarni ishlab chiqarishga yo'l qo'ymaslik, shuningdek, zavodda marketingni yaxshilash bo'yicha boshqaruv qarorlarini chiqarish zarur.

Sotish uchun tovarlar- ustav faoliyatini savdo-sotiq va umumiy ovqatlanish sohasida amalga oshiradigan zavod tomonidan harid qilingan tovarlar qoldig'i qiymatidir. Zavodda butlash uchun harid qilingan, lekin ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxiga kiritilmaydigan va xaridorlarga alohida qaytariladigan tayyor buyumlar qiymati kiritiladi. Bu tovarlar miqdori zarurat chegarasida bo'lib. Belgilangan me'yordan oshmasligi kerak. Barcha turdagi materiallar baholash eng kam tannarx yoki sof sotish qiymati bo'yicha amalga oshiriladi²⁰. Materiallar tannarxi ularni harid qilish, mahsulot ishlab chiqarish, qo'shimcha ishlab chiqarish va boshqa xarajatlarni o'z ichiga oladi.

Yakkabog' "Oq-oltin paxta tozalash zavodi» OAJda materiallarni xorijdan harid qilish xarajatlari harid qilish (hisob faktura summasida harid qilish chegirmalari ayriladi), olib kirish bojxona boji va boshqa soliqlar fraxt qiymati, sotib olish bilan bog'liq boshqa xarajatlardan kelib chiqadi.

Fraxt qiymati – xorijdan sotib olinayotgan materiallar bo'yicha xarajatlar, shu jumladan, ortish-tushirishlari va yo'lda tovarlarni sug'urtalash.

Ishlab chiqarish xarajatlari bevosita tayyor mahsulotni ishlab chiqarish bilan bog'liq xarajatlar, xususan, ishlab chiqarish moddiy xarajatlar, asosiy ishchilarga maosh to'lash xarajatlari, ishlab chiqarishga taaluqli ijtimoiy sug'urtalashga ajratmalardan tarkib topgan. Bu xarajatlar bevosita hisoblanadi.

Qo'shimcha ishlab chiqarish xarajatlari – ishlab chiqarish jarayoniga xizmat qilish bilan bog'liq ishlab chiqarish xarajatlari: ishlab chiqarish binolari va uskunalari amortizatsiyalari; ulardan foydalanish qiymati; ustalar, ta'mirchilar, yordamchi ishchilar ish haqi va ijtimoiy sug'urtalash ajratmalari

²⁰ А.С.Сотиволдиев "Замонавий бухгалтерия Ҷисоби".-Т.:ЎЗБАМА. 2004 йил.

ishlab chiqarish binolari va asboblari uchun ijara haqi; ishlab chiqarish bo'linmalari kommunal xizmatlari xarajatlaridan iborat.

Boshqa xarajatlar faqat materiallarni joyiga etkazib berish yoki ularni soz holatga keltirish jarayonida vujudga kelgan taqdirdagina materiallar tannarxiga kiritiladi. Zavod raxbariyati, shuningdek, materiallar tarkibiga kirmaydigan narsalarni ham bilishi shart.

Inventarizatsiyani o'tkazish paytida korxona egalik qilish xuquqiga ega bo'lmagan ob'ektlar aniqlanishi mumkin. Bu mijoz buyurtmasi bo'yicha yasalgan va u haqini to'lagan, unga tegishli bo'lgan va etkazishni kutib turgan tovarlar, shuningdek, konsignatsiyadagi, ya'ni mazkur ombor hisobida turgan, lekin boshqa korxonalar mulki hisoblangan tovarlardir. Materiallar tannarxiga "Davr xarajatlari" guruhiga kiritilgan chiqimlar kirmaydi.

Sof sotish qiymati – materiallarning hisob-kitob qilingan sotish narxi, bundan ishlab chiqarishni tugatish va mahsulot sotish bilan bog'liq butlash chiqimlari chegiriladi. Materiallarni sotish, narxi kamayganida, ularga zarar etkazilganida, to'liq yoki qisman eskirganida sof sotish qiymati bo'yicha baholash (amaldagi narxidan past) amalga oshiriladi.

"Moliyaviy natijalar haqidagi hisobot"da "Sotilgan mahsulotlar, tovarlar, ishlar, xizmatlarning ishlab chiqarish tannarxi" ko'rsatiladi. Uni olish uchun sotishga tayyor mahsulot tannarxidan davr oxiridagi tovar-moddiy zaxiralar tannarxi ayriladi va standart²¹ga ko'ra materiallar qiymati: ular aniq qiymatini alohida aniqlash usuli; FIFO (FIFO) usuli; AVEKO (AVEKO)-o'rtacha hisoblangan qiymat usuli bo'yicha topiladi.

Xalqaro amaliyotda, shuningdek, LIFO usuli ham qo'llaniladi. Teng qiymatga ega bo'lmagan materiallar birligi, shuningdek, alohida loyihalar uchun ishlab chiqarilgan va ajratilgan tovarlar yoki xizmatlar qiymati, ularining aniq qiymatini aniqlash yo'li bilan zarur hisob-kitob qilinishi zarur.

²¹ Ўзбекистон Республикаси адлия вазирлиги томонидан рўйхатга олинган 4-сонли "Товар-моддий заїиралар" бухгалтерия җисоби миллий стандарти.-Т.: 28.08.1998 й. № 486.

FIFO – birinchi harid narxlari bo'yicha baholash usuli ("birinchi bo'lib keldi – birinchi sotildi") birinchi navbatda qabul qilingan tovarlar tannarxi, birinchi navbatda sotilgan qiymatiga muvofiqlashtirilishi lozim, degan farazga asoslanadi. Birinchi harid qilingan materiallar birinchi sotiladi, tegishli ravishda davr oxiriga qolgan materiallar – bu oxirida sotib olingan yoki ishlab chiqarilganlaridir. FIFO usuli tovarlar amalda qanday harakatlanishidan qat'iy nazar, har qanday tarmoq korxonalari tomonidan qo'lanishi mumkin. Chunki tovarlar emas, ularning qiymati harakatlanishini hisobga oladi. Inflyatsiya davrida FIFO usuli yuqori darajali sof foyda olish imkonini beradi. Bu tovarlarning joriy narxlari o'sganida kompaniya ishlab chiqarilgan va sotiladigan mahsulotlar narxini ko'tarishga intiladi. Bunda materiallar narxlari o'sishiga qadar, sotib olinganligiga e'tibor berilmaydi.

AVEKO (o'rtacha hisoblangan qiymat) usuli - materiallar birligi qiymati davr boshidagi yoki hisobot ishlab chiqarilgan bir turga mansub birlikning o'rtacha hisoblangan qiymatidir. Materiallar birligining o'rtacha qiymati va materiallar butun qiymatini, bu materiallar birligiga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi. Bu hisobot davrida harid qilingan materiallar, barcha narxlarini hisobga olgan holda, narx o'zgarishini sezdirmaydi. O'rtacha qiymat muayyan davr bo'yicha yoki har bir etkazish jarayonida hisob kitob qilinishi mumkin. Bunda mazkur korxonada mavjud vaziyatdan kelib chiqadi.

LIFO – so'ngi harid narxlari bo'yicha baholash usuli ("so'ngi bo'lib keldi – birinchi sotildi") birinchi navbatda sotilgan tovarlar qiymatini aniqlash uchun so'ngi harid qilingan tovarlar tannarxi qo'llaniladi, hisobot davri oxiridagi materiallar tannarxi birinchi bo'lib harid qilingan tovarlar tannarxi bo'yicha hisob - kitob qilinadi. LIFO usulini qo'llash inflyatsiya davrida eng kam sof foyda, deflyatsiya jarayonlari davrida esa eng katta sof foydani beradi. Bu usul respublikamizda hozircha qo'llanilmayapti. YAKkabog' "Oq-oltin paxta tozalash zavodi» OAJda so'ngi uch usulni muayyan usulda ko'ramiz.

Yil oxirida omborda mahsulotning 500 birligi qolgan. Sotishdan tushgan daromad 150.000 ming so'mni tashkil etgan. Yil ohiridagi sotilgan mahsulot tannarxini aniqlash kerak.

Birinchi qaror – FIFO, birinchi xarid narxlari bo'yicha baholash usuli:

- mahsulot sotishdan tushgan daromad – 150.000.0
- barcha tayyor mahsulot tannarxi – 176.000.0
- yil oxiridagi mahsulot qoldig'i tannarxi (500×90.0) – 45.000.0
- sotilgan mahsulot tannarxi ($176.000 - 45.000$) – 135.000.0
- mahsulot sotishdan tushgan yalpi foyda ($150.000 - 135.000$) – 15.000.0
- ikkinchi qaror – aveko, o'rtacha hisoblangan qiymat usuli:
- mahsulot sotishdan tushgan daromad – 150.000.0
- barcha tayyor mahsulot tannarxi - 176.000.0
- tovar birligining o'rtacha hisoblangan qiymati ($176.000/2.400$) – 73.33
- yil oxirida mahsulot tannarxi (500×73.33) – 36.665.0
- sotilgan mahsulot tannarxi ($176.000 - 36.665$) – 139.335.0
- mahsulot sotishdan tushgan yalpi foyda ($150.000 - 139.335$) – 10.665.0
- uchinchi qaror – lifo, so'ngi xarid narxlari bo'yicha baholash usuli:
- mahsulot sotishdan tushgan daromad – 150.000.0
- barcha tayyor mahsulot tannarxi – 176.000.0
- yil oxiridagi mahsulot qoldig'i tannarxi (500×60.0) – 30.000.0
- sotilgan mahsulot tannarxi ($176.000 - 30.000$) 146.000.0
- mahsulot sotishdan tushgan yalpi foyda ($150.000 - 146.000$) – 4.000.0

Ko'rsatilgan qarorlarning ko'rsatishicha, baholanishning uch ko'rinishida yakuniy ma'lumotlar farqlanadi. Yil oxiridagi mahsulot qoldig'i tannarxi va foyda LIFO usuli bo'yicha eng kam, sotilgan mahsulot tannarxi FIFO usuli bo'yicha eng kamdir. O'rtacha hisoblangan qiymat usuli bo'yicha mahsulot qoldig'i tannarxi va yalpi foyda FIFO usuliga qaraganda past sotilgan mahsulot tannarxi esa aksincha yuqori.

Yakkabog' "Oq-oltin paxta tozalash zavodi» OAJda materiallar harakatini audit qilayotganda ularga qo'yilgan mablag'lar holati, ta'minlanganligi va ulardan foydalanish samaradorligini aks ettiradigan ko'rsatkichlarni aniqlash va o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq, buning uchun, birinchi navbatda, ularning ko'rsatkichlarini hisob-kitob qilish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Yakkabog' "Oq-oltin paxta tozalash zavodi» OAJda materiallar holatini aniqlaydigan ko'rsatkichlarga:

- materiallar summasi, umuman va turlari bo'yicha;
- materiallar tuzulishi;
- materiallardan foydalanish, kunlarda;
- materiallarning aylanma mablag'lar umumiy summasidagi ulushi;
- alohida turdagi materiallar o'sishi sur'atining ishlab chiqarish va sotish hajmi o'sishiga taqqoslash kiradi.

Materiallar summasi asosida ular miqdori va muayyan davrdagi o'zgarishi aniqlanadi, ular muayyan turlarining o'sishi ishlab chiqarish va sotish hajmlari o'zgarishiga taqqoslanadi. SHuningdek, materiallardagi mablag'lar holati, ta'minlanganligi va foydalanish samaradorligi topiladi.

Materillarning tuzilishi har bir turning ular umumiy summasidagi solishtirma og'irligini hisob-kitob qilish yo'li bilan aniqlanadi.

Shunday qilib, mablag'lar katta ulushi ishlab chiqarish zahirolari yoki tugallanmagan mahsulotda bo'lsa, zavod mablag'lari faqat mahsulot ishlab chiqarish va sotish tugaganidan keyingina qaytariladi. Tayyor mahsulot solishtirma og'irligining o'sishi ham raxbariyatni tashvishlantirishi lozim.

Chunki bu zavodning mahsulotiga talab kamligidan dalolat berishi mumkin. Yakkabog' "Oq-oltin paxta tozalash zavodi» OAJda materiallardan foydalanishni tahlil qilamiz (8-jadvalga qarang).

8-jadval ma'lumotlari materiallar tuzulishidagi o'zgarishlar ro'y berganligini ko'rsatmoqda, ishlab chiqarish pasayganida tayyor mahsulot

qoldiqlari summasi va solishtirma og'irligi ko'paygan. Bu ma'lumotlar mahsulot chiqarish va sotish hajmlari o'zgarishi sur'atlari bilan solishtiriladi (9-jadvalga qarang).

8-jadval

2011 yil uchun Yakkabog' "Oq-oltin paxta tozalash zavodi» OAJda materiallarni tekshirish va uning o'zgarishini aniqlash²²

ming. so'm hisobida

Ko'rsatkichlar	2010 y		2011 y		O'zgarishi (+,-)	
	Summasi ming so'm	%	Summasi ming so'm	%	Summasi ming so'm	%
Ishlab chiqarish zahiralar	8925	77.5	7568	59.9	-1407	-17.6
Tugallanmagan ishlab chiqarish	909	7.9	966	7.6	57	-0.3
Tayyor mahsulot	1611	14.0	4089	32.4	2478	18.4
Sotish uchun tovarlar	75	0.6	8	0.1	-67	-0.5
Jami	11520	100	12631	100	1111	0

9-jadval

2010-2011 yillarda Yakkabog' "Oq-oltin paxta tozalash zavodi» OAJda mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmlari o'zgarishini tekshirish²³

(ming so'm)

№	Ko'rsatkichlar	2009y	2010y	O'zgarishi %
1	Amaldagi narxlarda mahsulot ishlab chiqarish	13282	17239	129.8
2	Sotilgan mahsulot hajmi	9951	16428	165.1
3	Ishlab chiqarish zahiralar	8925	7568	84.8
4	Tugallanmagan ishlab chiqarish	909	966	106.3
5	Tayyor mahsulot	1611	4089	253.8

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar tayyor mahsulot qoldiqlari o'sishi sur'atlari mahsulotlarni sotish hajmi o'sishidan ancha yuqori ekanligini ko'rsatmoqda. Ya'ni mazkur zavod mahsuloti hisobot yilida xaridorlar talabini qondirmayapti yoki xaridorlar uni biror sabablarga ko'ra sotib olishni

²² Яккабоғ "Оқ-олтин пахта тозалаш заводи» АОЖ бухгалтерия хисоби маълумотлари асосида тузилди.

²³ Яккабоғ "Оқ-олтин пахта тозалаш заводи» АОЖ бухгалтерия хисоби маълумотлари асосида тузилди.

hohlamayapti. Ishlab chiqarish zahiralarini kamaytirish va mahsulot ishlab chiqarish hajmini keskin oshirish keyingi yilda ishlab chiqarishda jiddiy uzulishlarga olib kelishi mumkin.

Shuning uchun zavod rahbariyati tovarlarni sotishni tashkil etish, ishlab chiqarish zahiralarini butlash va materiallar tuzilishini yaxshilashga qaratilgan tezkor choralar ko'rish zarur.

Yakkabog' "Oq-oltin paxta tozalash zavodi» OAJda materiallardan foydalanish kunlari korxonada mavjud materiallar bilan qancha muddatga ta'minlanganligini ko'rsatadi. Har bir material turi o'z aniqlash usuliga ega. Materiallar bilan ta'minlash kunlarini aniqlash uchun ishlab chiqarish xarajatlari summasini kundalik ishlab chiqarish xarajatlariga bo'lish joiz. Bunday hisob-kitoblarni qilish shart, chunki, materiallar qoldig'i ishlab chiqarish maqsadlarida foydalanish uchun mo'ljallangan hamda ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligi hajmiga bog'liqdir. Tayyor mahsulot sotish kunlarida tayyor mahsulot qoldiqlarini kundalik mahsulot sotish summasiga bo'lish yo'li bilan topiladi.

Tayyor mahsulot qoldiqlari summasi haqidagi ma'lumotlar 1-son "Buxgalteriya balansi" shaklidan mahsulotni sotish summasi haqidagi ma'lumotlar esa 2-son «Moliyaviy natijalar haqidagi hisobot» shaklidan olinadi. Tayyor mahsulot qoldig'i sotish uchun mo'ljallangan bo'lib, uning uzluksizligini ta'minlash darkor.

Tovarlarni belgilangan kunlarda sotish, sotish uchun mo'ljallangan tovar summasi harid tovarlarining kundalik sotilishiga, savdo-sotiqqa va umumiy ovqatlanishda esa, tovar aylanmasiga bo'linadi.

Tugallanmagan ishlab chiqarishning kunlardagi qoldig'i ishlab chiqarish jarayoni, ya'ni tayyor mahsulotni ishlab chiqarish davomiyligiga bog'liq. Xorijdan sotib olinayotgan materiallar bilan ta'minlanganlik darajasi ularning kunlardagi summasini belgilangan me'yor bilan taqqoslash yo'li orqali aniqlanadi.

Yakkabog' "Oq-oltin paxta tozalash zavodi» OAJda materiallardan foydalanish samaradorligi ular aylanishi, rentabelligi va mablag'lar aylanishini tezlashishi (sekinlashishi) oqibatida ozod bo'lgan (qo'shimcha jalb qilingan) mablag'lar summasi bo'yicha topiladi.

Materiallardagi mablag'lar aylanishi, aylanish kunlari va necha martaligiga ko'ra hisob-kitob qilinadi. Aylanish kunlaridagi tovar zahiralari mablag'ning bir marta aylanish uchun ketgan kun miqdorini aks ettiradi va materiallarning o'rtacha yillik summasini kundalik mahsulot sof sotilishiga bo'lish yo'li bilan topiladi. Materiallarning martalik aylanishi (aylanish koeffitsenti) ni aniqlash uchun ishlab chiqarilgan mahsulotning sof o'rtacha summasiga (TMZo'r) bo'linadi. Bu ko'rsatkich materiallarga qo'yilgan mablag'lar aylanishi miqdorini ko'rsatadi.

Yakkabog' "Oq-oltin paxta tozalash zavodi» OAJda materiallarning o'rtacha yillik summasi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$TMZo'r = 1/2TMZ1 + TMZ2 + TMZ3 + 1/2TMZ5 / 4$$

Bu erda: TMZ-1, TMZ-2, TMZ-3, TMZ-3, TMZ-4, TMZ-5 - chorak boshi va oxiridagi materiallar summasi.

Kunlardagi aylanish qanchalik past va aylanish koeffitsenti qanchalik yuqori bo'lsa, materiallarga qo'yilgan mablag'lar shunchalik tez bo'ladi va aksincha.

Materiallar rentabelligi (Rtmz) sof foydani (SF) materiallarning o'rtacha summasi (TMZo'r)ga bo'lish yo'li bilan foizda aniqlanadi. Aylanish tezlashishi (sekinlashishi) oqibatida ozod bo'lgan (qo'shimcha jalb qilingan) mablag'lar summasini topish materiallardan foydalanish samaradorligini aniqlashning muhim jihatlaridan biridir.

Materiallarning martalik aylanishi (aylanish koeffitsenti) ni aniqlash uchun ishlab chiqarilgan mahsulotning sof o'rtacha summasiga (TMZo'r) bo'linadi. Mazkur hisob-kitob usulini Yakkabog' "Oq-oltin paxta tozalash zavodi» OAJ misolida keltiramiz:

2010 yilda Yakkabog' "Oq-oltin paxta tozalash zavodi» OAJ bo'yicha
materiallardan foydalanish holatini aniqlash²⁴

(ming so'm)

№	Ko'rsatkichlar	2009 yil	2010 yil	O'zgarish (+,-)
1	Materiallarning o'rtacha yillik summasi	11400	12350	+950
2	Mahsulot sotishdan kelgan sof tushum	9951	16428	+6477
3	Materiallardagi mablag'lar aylanishi, kun hisobida	418.1	274.4	-143.7
4	Mahsulot sotishdan kundalik tushum	27.26	45.01	+17.75
5	Materiallarning ozod bo'lgan (+), qo'shimcha jalb qilingan (-) mablag'lari	-	-	6468

10-jadval ma'lumotlariga ko'ra bajarilgan hisob-kitoblar asosida materiallardagi mablag'lar aylanishi 2010 yilda, $Aytmzk = 11400 \times 365 / 9951 = 418.1$ kun

2011 yilda, $Aytmzk = 12350 \times 365 / 16428 = 274.4$ kunni tashkil etganligini ko'ramiz. Boshqacha aytganda, hisobot yilida u 143.7 kunga tezlashdi.

Materiallar aylanish tezlanishi (sekinlashishi) oqibatida ozod bo'lgan (qo'shimcha jalb qilingan) mablag'lar summasini aniqlash maqsadida ishlab chiqarilgan mahsulotni sotishdan kelgan kundalik tushumni ular aylanishi tezlashgan (sekinlashgan) kunlar miqdoriga ko'paytirish kerak.

Yuqorida 10-jadval ma'lumotlariga ko'ra, Yakkabog' "Oq-oltin paxta tozalash zavodi» OAJda materiallar aylanishi tezlashganligi natijasida o'tgan yilga qaraganda 6468 ming so'm (45.01×143.7) mablag'ni aylanishdan ozod etgan. Korxona rahbarlari materiallar aylanishini tezlashtirish uchun barcha choralarni ko'rishi lozim. Bu o'z navbatida, umuman aylanma oborotlar harakatini tezlashtiradi va boshqa xo'jalik ehtiyojlariga yo'naltirish mumkin bo'lgan mablag'larni ozod qiladi.

Yakkabog' "Oq-oltin paxta tozalash zavodi» OAJda materiallardan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida:

- mahsulot ishlab chiqarish va sotio' hajmini ko'paytirish;

²⁴ Яккабоғ "Оқ-олтин пахта тозалаш заводи» АОЖ бухгалтерия хисоби маълумотлари асосида тузилди.

- chiqarilayotgan mahsulot sifatini oshirish va turlarini ko'paytirish;
- materiallar tuzulishini maqbullashtirish;
- me'yordan ortiqcha ishlab chiqarish va tayyor mahsulot zahiralarini, shuningdek, tugallanmagan ishlab chiqarish hajmlarini kamaytirish;
- chiqarilayotgan mahsulot talabi va taklifini o'rganishni yaxshilash;
- materiallarni qabul qilish, saqlash va etkazishni to'g'ri tashkil etish lozim.

Shunday qilib, yuqorida audit tekshiruvi natijalari bo'yicha bildirilgan taklif va tavsiyalarni hal etish Yakkabog' "Oq-oltin paxta tozalash zavodi» OAJ ishi va samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi muqarrar deb hisoblaymiz.

Xulosa va takliflar

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilash jarayonida paxta tozalash zavodilarining ishlab chiqarish hajmini keng ko'lamda kengaytirish hamda ularni rivojlantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biriga biriga aylandi. Bunda, ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sifati o'ta yuqori va xaridorgir bo'lishi ularning moliyaviy xo'jalik faoliyatining yaxshilanishiga hamda moliyaviy barqarorlikka erishishlariga olib keladi. Albatta bunday yuqori samaradorlikka erishida ishlab chiqarilayotgan mahsulotga qilinadigan xoriждан sotib olinayotgan materiallarning ulushi ham katta ta'sir ko'rsatadi. Bu o'z navbatida, paxta tozalash zavodilari tomoanidan xoriждан sotib olinayotgan materiallarga bo'lgan ehtiyojni bir tomondan oshirishi, ikkinchi tomondan ushbu zahiralarining qiymatining bozor talablarini inobatga olib, mahsulot tannarxining qanchaga tushishini hisobga olishni taqazo etadi.

Shu boisdan, paxta tozalash zavodilarida yaratilayotgan mahsulotda materiallarning ulushi qanday salmoqni tashkil etishi, shuningdek, ularning tarkibida esa, xoriждан sotib olingan materiallarning hissasini ham alohida hisobga olishni talab qiladi. Chunki ushbu zahiralarni hisobga olishda ularning o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olib, buxgalteriya hisobini tashkil qilish muhim ahamiyatga ega.

Shundan kelib chiqib, mazkur bitiruv malakaviy ishini nazariy va amaliy jihatdan o'rganish, tahlil qilish hamda ularning auditini o'tkazish masalalarini atroflicha tadqiq etish natijasida muallif tomonidan quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Materiallardan foydalanishning iqtisodiy mazmuni, mohiyati chuqur tahlil qilindi va ularning turkumlanishi hamda baholash usullari o'rganildi, shuningdek, materiallarni sarflashda baholash usulining "FIFO" usulini qo'llash tavsiya etildi. Ushbu usulni qo'llashda ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxining shakllanishiga ob'ektiv yondashgan bo'lamiz va o'sha

davrda kelib tushgan materiallarning bir birlik bahosiga asoslangan holda navbatma-navbat hisobdan chiqarishga erishiladi;

2. Yakkabog' "Oq-oltin paxta tozalash zavodi» OAJda materiallar harakatining buxgalteriya hisobi va auditini nazariy va uslubiy asoslari har tomonlama o'rganildi, hamda hisob registrlari va shakllaridan foydalanishda, sub'ektning hajmi (katta-kichikligi)dan kelib chiqib, hisob yuritish tizimi, ya'ni hisob siyosatini ishlab chiqish tavsiya etildi. Ushbu hisob siyosatida buxgalteriya hisobini yuritish va hisobotlarini tuzishda eng samarali bo'lgan usullardan birini tanlab olish taklif etildi;

3. Yakkabog' "Oq-oltin paxta tozalash zavodi» OAJda materiallar xarakati hisobini yuritishning o'ziga xos xususiyatlari bugungi kunda amal qilinayotgan qonuniy va me'yoriy hujjatlar talablariga mos holda tashkil etish maqsadga muvofiq deb topildi. Ularni sotib olish bilan bog'liq dastlabki hujjatlarni rasmiylashtirishda foydalaniladigan hisob registrlari va shakllarini soddalashtirish lozimligi, shuningdek, valyuta qiymatliklaridagi kurs farqlarini hisobga olishda eng qulay va samarali bo'lgan usullardan birini tanlash bo'yicha fikrlar bildiradi;

4. Yakkabog' "Oq-oltin paxta tozalash zavodi» OAJda materiallar harakatini audit qilishda axborot ta'minot manbalarining shakllanishi va ulardan foydalanish hamda tahlil qilishda eng qulay bo'lgan usullardan birini qo'llash bo'yicha fikrlar bildirildi;

5. Yakkabog' "Oq-oltin paxta tozalash zavodi» OAJning moliyaviy barqarorligiga baxo berish maqsadida iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlil qilindi va materiallardan samarali foydalanish jarayoni o'rganildi, hamda ularni ishlatishda yo'l qo'yilgan kamchiliklar asoslab berildi, shuningdek, ushbu kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan fikr-mulohazalar bildirildi;

6. Yakkabog' "Oq-oltin paxta tozalash zavodi» OAJda xorijdan sotib olingan materiallar bo'yicha kursdagi farqlarni olingan materiallar tannarxiga olib borishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Sunday qilib, Yakkabog' "Oq-oltin paxta tozalash zavodi» OAJda materiallar harakatining buxgalteriya hisobini to'g'ri tashkil qilish, yuritish va ularning auditi bo'yicha bildirilgan fikr-mulohazalar hamda taklif-tavsiyalar xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyati qisman bo'lsada, foydalanilsa, o'ylaymizki, hisob tizimini mukammallashtirish imkoniyatini yaratgan bo'lardi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2010.
2. O'zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonuni. –T.: 1996.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari

3. “Monopoliyaga qarshi ishlarni tartibga solish va raqobatni rivojlantirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 fevraldagi PF-4191-son Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami – 9 son – 2010- 9 mart.

1. “Mustahkam oila” davlat dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlari to'g'risida: O'zR Prezidentining Farmoyishi. 2011 yil 9 dekabr //Xalq so'zi. -2011. - № 238. – 10 dekabr. – 1 b. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni.

2. Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularni barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida. 2008 yil 28 noyabr, PF-4058-son.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. 2009 yil 20 yanvar, PQ-1041-son.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan taqdim etiladigan xisobot tizimini takomillashtirish va uni noqonuniy talab etganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish to'g'risida” Farmoni// Xalq so'zi, 2005,15 iyun.

III. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va O'zbekiston Respublikasi vazirliklarining huquqiy- me'yoriy hujjatlari

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Mahsulot (ishlar, xizmatlar) ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy

natijalarni shakllantirish tartibi” to’g’risida Qarori//O’zbekiston Respublikasi hukumatining qarorlari to’plami, 1999 54 – son, 1999 dekabr. – T.:O’zbekiston. Adliya vazirligi., 2000.-15-20 b.

6. O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining «1 yanvar holati bo’yicha asosiy fondlarni har yili qayta baholashni o’tkazish tartibi to’g’risida» nizom. O’Z AV tomonidan 1192-son bilan ro’yxatga olingan –T.: 2002 y.

7. O’zbekiston Respublikasining Buxgalteriya hisobining milliy standartlari, To’plam. T.: O’zR BAMA nashriyot markazi. 2002.

IV. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

8. O’zR Prezidenti I.Karimovning 2012-yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko’taradigan yil bo’ladi: 2011-yilning asosiy yakunlari va 2012-yilda O’zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo’nalishlariga bag’ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasi. «Xalq so’zi» gazetasi, 2012 yil 20 yanvar, № 14 (5434).

9. Karimov I.A. O’zbekiston Respublikasi mustaqilligining 20 yilligiga bag’ishlangan tantanali marosimidagi tabrik so’zi. - T.: O’zbekiston, Xalq so’zi gazetasi. 2011 yil 1 sentyabr, № 171 (5338).

10. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi (O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo’shma majlisidagi ma’ruza), “Xalq so’zi”, 2010 yil 13 noyabr (№ 220),

11. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. - Prezident Islom Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo’ljallangan eng muhim ustuvor yo’nalishlarga bag’ishlangan O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasi //Xalq so’zi, 2011 yil 22 yanvar.

V. Darsliklar

12. Breslavitseva N.A., Mixaylova N.V., Goncharenko O.N. Buxgalterskiy uchët. Uchebnik. Rostov n/D: Feliks, 2012, 318 str.
13. Xasanov B.A., Xoshimov A.A. Boshqaruv hisobi. Darslik. -T.: “YAngi nashr», 2011 y, 312 bet.
14. Xolbekov R.O. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. Darslik. -T.: “CHo’lpon” nashriyoti. 2011, 200 bet.
15. Nechitaylo A.I. Teoriya buxgalterskogo ucheta: ucheb. Rossiya . -M.: Prospekt, 2010. – 272 s.
16. Jo’raev N., Abduvaxidov F., Sotvoldieva D. Moliyaviy va boshkaruv xisobi. Darslik. -T.: 2010 y, 310 bet
17. Kondrakov N.P. Buxgalterskiy (finansovyy, upravlencheskiy) uchët: ucheb. – M.: Prospekt, 2009. – 448 s.
18. SHilenko S.I. i dr. Osnovy audita: uchebnik.– M.:KNORUS, 2009.–152 s.
19. Kuter M.I. Teoriya buxgalterskogo ucheta: Uchebnik.- 3-e izd., pererab. i dop. – M.: Finansy i statistika , 2008.- 592 s.
20. Sokolova, E.S. Buxgalterskoe delo: uchebnik. - M.: Vysshee obrazovanie, 2008.- 328 s
21. Buxgalterskiy finansovyy uchët: Uchebnik dlya vuzov / Pod red. prof YU.A. Babaeva. – M.: Vuzovskiy uchebnik, 2006. – 525 s.
22. Sotivoldiev A. S. Zamonaviy buxgalteriya xisobi. Darslik. –T. BAMA, 2005 y
23. Karimov A.A. Buxgalteriya hisobi. /Darslik -T.: SHarq,2004.-592 b.
- 24.Xasanov B.A. Boshqaruv hisobi. /Darslik –T.: Iqtisod-moliya, 2005. -307 b.
- 25.To’laxo’jaeva M. Ilxomov SH. Audit. O’quv qo’llanma. –T.: 2006. -161 bet

26. Бухгалтерский финансовый учет: Учебник для вузов / Под ред. проф. Ю.А. Бабаева. – М.: Вузовский учебник, 2006. – 525 с.

27. До‘stmuradov R. Audit asoslari. Darslik. –T.: “Fan”, 2004

VI. O‘quv qo‘llanmalar

28. O‘zR Prezidenti I.Karimovning 2012-yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘taradigan yil bo‘ladi: 2011-yilning asosiy yakunlari va 2012-yilda O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi “2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘taradigan yil bo‘ladi” mavzusidagi ma‘ruzasini o‘rganish bo‘yicha o‘quv qo‘llanma. –T.: “O‘qituvchi” NMIU, 2012. -272 bet.

29. O‘zR Prezidenti I.Karimovning “Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir” hamda “Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir” nomli ma‘ruzalarini o‘rganish bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Iqtisodiyot. - 2010. 151 bet.

30. Bu muqaddas Vatanda azizdir inson. O‘zbekistonning 19 yil mustaqil taraqqiyot yo‘lida jamiyatni modernizatsiyalash va iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning dadil odimlari va muvaffaqiyatlari: talaba yoshlar va keng jamoatchilik bilan uchrashuvlarda foydalanish uchun ijtimoiy-iqtisodiy va ma‘naviy-ma‘rifiy mavzuda ilmiy-ommabop risola. – T.: “Iqtisodiyot”, 2010. - 148 bet.

31. O‘zR Prezidenti Islom Karimovning BMT sammitining Ming yillik rivojlanish maqsadlariga bag‘ishlangan yalpi majlisidagi nutqini o‘rganish bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua. Toshkent: “Iqtisodiyot” nashriyoti, 2010. – 146 bet.

32. Ergasheva SH.T. Бухгалтерский учет. Учебное пособие. / -T.: Iqtisod-moliya, 2011. -520 str.

33. O‘razov K.B., Vaxidov S.V. Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari. / Darslik. –T.: Adib, 2011, 488 bet

34. Kaspina R.G., Plotnikova L.A. Buxgalterskiy uchet vneshneekonomicheskoy deyatel'nosti: ucheb. posob. Rossiya.-M.: Eksmo, 2010. – 432 s.

35. Endovitskiy D.A., Ishkova N.A. Uchet tsennyykh bumag: ucheb. posob. Rossiya.-M.: KNORUS, 2010. – 384 s.

36. Kaspina R.G., Plotnikova L.A. Buxgalterskiy uchet vneshneekonomicheskoy deyatel'nosti: ucheb. posob. Rossiya.-M.: Eksmo, 2010. – 432 s.

37. Medvedev M.YU. Uchetnaya politika organizatsii na 2010 god: prakticheskoe posobie. Rossiya. M.: KNORUS, 2010. – 248 s.

38. Xvostik T.V. Praktikum po buxgalterskomu (finansovomu) uchetu: ucheb. posob. Rossiya. -M.: FORUM, 2010. – 176 s.

39. Zonova A.V. i dr. Buxgalterskiy uchet i analiz: ucheb. posob. pod red. A.V. Zonovoy. – M.: Eksmo, 2009. – 512 s.

40. Kamordjanova N.A., Kartashova I.V. Buxgalterskiy finansovyy uchet. 4-e izd., dop. – SPb.: Piter, 2009. – 288 s.

41. Zaxarin V.R. Uchet osnovnykh sredstv i nematerial'nykh aktivov: spravochnik buxgaltera: prakt. rukovodstvo.- M.: Eksmo, 2008.- 320 s.

42. Konstantinova E.P. Mejdunarodnyye standarty finansovoy otchetnosti: Ucheb. posob. – M.: «Dashkov i K », 2008. – 288 s.

43. Petrova V.I. i dr. Buxgalterskiy uchet, analiz i audit deyatel'nosti straxovykh organizatsiy. – M.: FiS, 2008. – 400 s.

VII. Statistika to'plamlari ma'lumotlari

44. Investitsii respubliki Uzbekistan 2010. Statisticheskii sbornik. – T.: Goskomitet RUz po statistike, 2011. – 148 s

45. Promyshlennost' respubliki Uzbekistan 2009. Statisticheskii sbornik. - T.: Goskomitet RUz po statistike, 2008. – 156 s.

VIII. Internet saytlari

46. <http://www.ziyonet.uz>

47. <http://www.gaap.ru>
48. <http://www.akdi.ru>
49. “Norma” 2012.
50. “Pravo” 2012.
51. Lex.uz.